Ushbu tadqiqotda 1,3,5-trixlorbenzol asosida polifenilensulfid (PFS) polimerini olishning samarali usuli ishlab chiqildi va sintez jarayonining muhim bosqichlari chuqur tahlil qilindi. Tadqiqotning asosiy yangiligi — bu SNAr (nukleofil aromatik almashinish) mexanizmi asosida yuqori haroratli muhitda, N-metilpirolidon (NMP) erituvchisi ishtirokida PFS polimerining samarali sintez yo‘li taklif etilgani bo‘ldi. Reaksiya natijasida hosil bo‘lgan polimer yuqori issiqlik va kimyoviy barqarorlik xususiyatlariga ega bo‘lib, uning tarkibida aromatik halqalar va –S– guruhlarining mavjudligi FTIR spektral tahlili orqali tasdiqlandi. Shuningdek, sintez qilingan PFS namunalarining morfologik va element tarkibi SEM va EDS usullari yordamida tahlil qilindi.

SEM tasvirlarida PFS polimerining g‘ovakli va qatlamli struktura hosil qilgani, bu esa uning sirt xossalari va qo‘llanilish imkoniyatlari uchun muhim ekanligi ko‘rsatib berildi. EDS natijalari esa polimer tarkibida uglerod, oltingugurt, kislorod va xlor elementlarining mavjudligini aniqlab, sintez jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshganini isbotladi. Olingan natijalar PFS polimerining yuqori harorat va agressiv kimyoviy muhitlarga chidamli, mexanik mustahkam, morfologik jihatdan barqaror texnik material sifatida sanoat va ilg‘or muhandislik sohalarida keng qo‘llanilish imkoniyatini namoyon etdi. Ushbu tadqiqot lokal sharoitda yuqori samarali funksional polimerlar sintezining imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilishi bilan birga, kelgusidagi ilmiy izlanishlar uchun mustahkam nazariy va amaliy asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Zuo, Peiyuan, et al. "Overall investigation of poly (phenylene sulfide) from synthesis and process to applications—a review." Macromolecular Materials and Engineering 304.5 (2019): 1800686.
2. Михайлин Ю. А. Термоустойчивые полимеры и полимерные материалы. – 2006.
3. СЕРГЕЕВ, ВЛАДИМИР АЛЕКСАНДРОВИЧ, et al. "Способ получения полифениленсульфидов." (1985).
4. Edmonds, Jr James T., and Jr Harold Wayne Hill. "Production of polymers from aromatic compounds." U.S. Patent No. 3,354,129. 21 Nov. 1967.
5. Liu T. et al. Microstructure and properties of microcellular poly (phenylene sulfide) foams by Mucell injection molding //Polymer-Plastics Technology and Engineering. – 2013. – Т. 52. – №. 5. – С. 440-445

ISSN 3030-3907

6. Stoeffler K. et al. Polyphenylene sulfide (PPS) composites reinforced with recycled carbon fiber //Composites Science and Technology. – 2013. – Т. 84. – С. 65-71.
7. Pimenta S., Pinho S. T. Recycling carbon fibre reinforced polymers for structural applications: Technology review and market outlook //Waste management. – 2011. – Т. 31. – №. 2. – С. 378-392.
8. Deng J. et al. Thermal aging effects on the mechanical behavior of glass-fiber-reinforced polyphenylene sulfide composites //Polymers. – 2022. – Т. 14. – №. 7. – С. 1275
9. Lenz R. W., Handlovits C. E., Smith H. A. Phenylene sulfide polymers. III. The synthesis of linear polyphenylene sulfide //Journal of Polymer Science. – 1962. – Т. 58. – №. 166. – С. 351-367
10. Султонов О.К Каримов М.У., Джалилов А.Т Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2025. 4(133). URL: https://7universum.com/ru/tech/archive/item/19728 (дата обращения: 28.04.2025).
11. Исмаилов Ф. С. и др. ИСПЫТАНИЕ НА ПРОЧНОСТЬ БЕТОННЫХ СМЕСЕЙ С ДОБАВЛЕНИЕМ СУПЕРПЛАСТИФИКАТОРОВ И БАЗАЛЬТОВОЙ ФИБРЫ //Universum: технические науки. – 2024. – Т. 6. – №. 10 (127). – С. 15-18
12. Пат. SU 816134. Способ получения полифениленсульфидов/Сергеев В.А., Неделькин В.И., Андрианова О.Б., Денисова М.С., Ливен А.В., Юнников В.В.1985. Т. 49. № 6. С. 3-10.

ISSN 3030-3907

“YO‘L QURILISH FREZA MASHINALARI TISHLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH”

Maxmudov Xayrullo Xasanjon o‘g‘li
tayanch doktorant,
Andijon davlat texnika instituti, Andijon Shahar, O‘zbekiston.

Annotatsiya: Ushbu maqolada yo‘l qurilish freza mashinalari tishlarining samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan. Asosiy e’tibor O‘zbekistonning iqlimiy va texnologik sharoitlariga mos ravishda tish materiallari, geometrik shakllari va ularni real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyatlariga qaratilgan. Maqolada xalqaro tajriba (Schmidt, Caterpillar, Wirtgen Group va boshqalar) hamda mahalliy tadqiqotchilar (Muxamedov, Botirov, Karimov, Abdullaev) tomonidan olib borilgan izlanishlar tahlil qilingan. Volfram karbid va olmos qoplamali tishlarning ishlash muddati, yeyilishga qarshiligi, energiya tejamkorligi bo‘yicha qiyosiy tahlillar berilgan. Bundan tashqari, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari, sensorli monitoring texnologiyalari, tishlarning joylashuvi va baraban aylanish tezligining samaradorlikka ta’siri ham o‘rganilgan. Maqola yakunida O‘zbekiston sharoitlariga moslashtirilgan texnologiyalar, iqtisodiy jihatdan samarali yechimlar va operator malakasini oshirish bo‘yicha takliflar berilgan.

Kalit so‘zlar: Yo‘l freza mashinasi, yo‘l qurilishi, tishlar samaradorligi, volfram karbid, yeyilish, real vaqt monitoring.

Abstract: This article addresses the issues of improving the efficiency of teeth in road milling machines. The primary focus is on tooth materials, geometric shapes, and the possibilities for real-time monitoring, tailored to the climatic and technological conditions of Uzbekistan. The article analyzes international experience (Schmidt, Caterpillar, Wirtgen Group, and others) as well as research conducted by local researchers (Mukhamedov, Botirov, Karimov, Abdullaev). Comparative analyses of the service life, wear resistance, and energy efficiency of tungsten carbide and diamond-coated teeth are presented. Additionally, the impact of automated control systems, sensor monitoring technologies, tooth placement, and drum rotation speed on efficiency has been examined. The article concludes with proposals for technologies adapted to Uzbekistan's conditions, economically efficient solutions, and recommendations for enhancing operator qualifications.

Key words: Road milling machine, road construction, gear efficiency, tungsten carbide, wear, real-time monitoring.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы повышения эффективности зубьев дорожных фрезерных машин. Основное внимание уделяется материалам зубьев, их геометрическим формам и возможностям

ISSN 3030-3907

мониторинга в режиме реального времени, адаптированным к климатическим и технологическим условиям Узбекистана. В статье анализируется международный опыт (Schmidt, Caterpillar, Wirtgen Group и другие), а также исследования, проведенные местными учеными (Мухамедов, Ботиров, Каримов, Абдуллаев). Представлены сравнительные анализы срока службы, износостойкости и энергоэффективности твердосплавных и алмазных зубьев. Кроме того, было изучено влияние автоматизированных систем управления, технологий сенсорного мониторинга, расположения зубьев и скорости вращения барабана на эффективность. Статья завершается предложениями по технологиям, адаптированным к условиям Узбекистана, экономически эффективным решениям и рекомендациям по повышению квалификации операторов.

Ключевые слова: Дорожная фрезерная машина, строительство дорог, эффективность зубчатых передач, карбид вольфрама, износ, мониторинг в реальном времени.

O‘zbekiston sharoitida freza mashinalarining mexanik va gidravlik tizimlarini integratsiyalash orqali samaradorlikni oshirishga qaratilgan ishlar olib borilmoqda. A.Muxamedov va A.Botirovlar o‘zlarining ishlarida volfram karbid qotishmali tishlarning O‘zbekistonning og‘ir iqlim sharoitlarida (yuqori harorat va chang) yuqori yeyilish qarshiligiga ega ekanligini, tishlarning geometrik shakli va baraban aylanish tezligining samaradorlikka ta’sirini tahlil qilishgan. Natijada volfram karbid tishlarning ishlash muddati standart po‘lat tishlarga nisbatan 25% uzoqroq ekanligi aniqlangan. Shu bilan birga, mualliflar real vaqt rejimida yeyilish monitoringi tizimlarini joriy etishni tavsiya qilishgan[1].

Schmidt xalqaro miqyosda freza mashinalarining tishlarini optimallashtirish bo‘yicha tadqiqot olib borgan. U tishlarning geometrik shaklini (konus burchagi, kesuvchi qirra dizayni) va baraban aylanish tezligini optimallashtirish orqali samaradorlikni 15–20% ga oshirish mumkinligini takidlagan. Tadqiqotda volfram karbid va olmos qoplamali tishlarning taqqoslangan. Bunda J.Schmidt olmos qoplamali tishlar yuqori qattiqlikdagi qoplamalarda (masalan, beton) samaraliroq bo‘lsa, volfram karbid tishlar yumshoqroq qoplamalarda (asfalt) yuqori samara ko‘rsatishini aytib o‘tgan, hamda, real vaqt monitoringi uchun sensor texnologiyalaridan foydalanishni taklif qilgan[2].

“Caterpillar Inc”. (2019-yil) texnik hisobotida freza mashinalarining gidravlik tizimlari va tishlarning o‘zaro ta’siriga e’tibor qaratilgan. Hisobotda tishlarning joylashish tartibi va gidravlik tizimning quvvati samaradorlikka ta’sir qilishi tahlil qilingan. “Caterpillar” tishlarning yeyilishini kamaytirish uchun avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini joriy etishni tavsiya qilgan. Hisobotda

ISSN 3030-3907

tishlarning optimal joylashishi energiya sarfini 10% ga kamaytirishi va ishlash muddatini uzayishi va volfram karbid tishlarning iqtisodiy samaradorligi ta’kidlangan[3].

O‘zbekiston sharoitlarida freza tishlarining yeyilishini tahlil qilish uchun dasturiy ta’minotlardan foydalanish, yeyilish darajasini o‘lchash uchun lazer skanerlar va infraqizil sensorlardan foydalanish mumkin. A.Karimov o‘zining ishida dasturiy ta’minot yordamida yeyilish tahlili xarajatlarni 12% ga kamaytirishi va tishlarni o‘z vaqtida almashtirishni ta’minlashi va O‘zbekistonning yo‘l qurilishi sharoitlariga moslashtirilishi mumkinligi haqida ta’kidlagan[4].

ISO 1985b. xalqaro standartida freza mashinalarining shovqin darajasini o‘lchash va xavfsizlik talablarini belgilangan. Standart tishlarning yeyilishi va mashina shovqini o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilishda muhim yo‘l-yo‘riqlar berilgan. Tishlarning yeyilishi shovqin darajasini oshirishi mumkinligi, bu esa operator xavfsizligiga ta’sir qilishi haqida takidlangan va standart shovqin darajasini 85 dB dan past tutilishi haqida tavsiya qilingan[5].

Wirtgen Group (2021-yil) texnik qo‘llanmasi ular tomonidan ishlab chiqarilgan freza mashinalarining tishlariga bag‘ishlangan bo‘lib, kesuvchi texnologiyalarni takomillashtirishga qaratilgan. Qo‘llanmada volfram karbid tishlarning dizayni, kesuvchi qirra burchagi va yeyilish qarshiligini oshirish usullari muhokama qilingan. Wirtgen tishlarning konus shaklidagi dizaynini optimallashtirish orqali energiya sarfini 10% ga kamaytirish va ishlash muddatini 30% ga uzaytirish mumkinligini haqida ta’kidlagan. Qo‘llanmada tishlarning yeyilishini monitoring qilish uchun sensorli tizimlar, xususan, “Wirtgen Performance Tracker” tavsiya etilgan. Sensorlar real vaqt rejimida tishlarning holatini tahlil qilib, almashtirish vaqtini aniqlashga yordam beradi[6].

L.Zhang va H.Wang o‘zlarining “Karbid asosidagi frezalash tishlarining og'ir muhitda yeyilishga qarshiligi” nomli maqolasida volfram karbid va boshqa qotishma asosidagi freza tishlarining og‘ir sharoitlarda (yuqori harorat, abraziv materiallar) yeyilishga qarshiligini o‘rgangan. Tadqiqot Xitoyning yo‘l qurilishi sharoitlariga asoslangan bo‘lib, eksperimental sinovlar va kompyuter simulyatsiyalariga tayangan. Ular volfram karbid tishlarning yeyilish qarshiligini oshirish uchun nano-qoplamalar (masalan, titan nitridi) qo‘llanilishi samaradorlikni 18% ga oshirishi aniqlagan. Tadqiqotda tishlarning yeyilishini simulyatsiya qilish uchun kompyuter modelidan foydalanilgan, bu esa yeyilish darajasini oldindan bashorat qilish imkonini beradi[7].

S.Abdullaev O‘zbekiston sharoitida yo‘l qurilishi mashinalarining samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqot olib borgan. Maqolada freza tishlarining yeyilishi va ularning material tarkibiga alohida e’tibor qaratgan.

ISSN 3030-3907

Muallif mahalliy ishlab chiqarilgan volfram karbid tishlarning narx-sifat nisbati import qilingan tishlarga nisbatan iqtisodiy jihatdan foydali ekanligini, hamda, tishlarning yeyilishini kamaytirish uchun gidravlik tizimni optimallashtirishni taklif qilingan, bu esa energiya sarfini 8% ga kamaytiradi[8].

Freza barabanining dizayni va tishlarning joylashish tartibini optimallashtirish orqali kesish samaradorligini oshirishi mumkin. Janubiy Koreyaning yo‘l qurilishi sharoitlariga asoslangan tadqiqotda J.Lee va S.Kimlar tishlarning spiral shaklida joylashishi va baraban aylanish tezligini 1700–1900 rpm oralig‘ida sozlash samaradorlikni 12% ga oshirishini aniqlangan. Tadqiqotda tishlarning yeyilishini kamaytirish uchun avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari tavsiya etilgan, bu esa operator xatolarini minimallashtiradi[9].

Freza mashinalarining asosiy texnologik vazifasi materiallarni kesish, shakllantirish va to‘g‘rilashdir. Frezalar asfalt, beton, qattiq toshlar va boshqa qattiq materiallarni qayta ishlashda muhim ahamiyatga ega. Bu mashinalarning ishlash samaradorligi materiallar xususiyatlariga va ishlash sharoitlariga bog‘liq bo‘ladi. Hozirgi kunda, freza mashinalari juda murakkab konstruktsiyalarni yaratish imkonini beruvchi ko‘plab modifikatsiyalarga ega. Masalan, V. I. Shevchenko va M. A. Azarov (2018) o‘zlarining ishlarida freza mashinalarining tishlari va ularning ishlash xususiyatlarini optimallashtirish usullari haqida so‘z yuritadilar. Ular freza tishlarining turli materiallarga qarshi chidamliligini o‘rganib, ular orqali yuqori samaradorlikka erishish yo‘llarini ko‘rsatganlar[10].

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, yo‘l qurilish freza mashinalari tishlarining samaradorligini oshirish yo‘nalishida muhim nazariy va amaliy asoslarni taqdim etadi; Muxamedov, Botirov hamda Karimov tomonidan O‘zbekiston sharoitlariga mos tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, xalqaro manbalar, jumladan Schmidt va Caterpillar tomonidan taklif etilgan keng ko‘lamli texnologik yechimlar, ayniqsa, ilg‘or materiallar, sensorli monitoring tizimlari va optimal konstruktiv yechimlar bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, mavjud ishlanmalarda O‘zbekistonning iqlimiy va geologik sharoitlarini, byudjet imkoniyatlarini hamda yo‘l qoplamalarining xususiyatlarini inobatga olishda ayrim kamchiliklar mavjud. Mazkur kamchiliklarni bartaraf etish uchun bir qator muhim yo‘nalishlar belgilangan: xususan, mahalliy sharoitlarga mos, iqtisodiy jihatdan maqbul va chidamli tish materiallarini ishlab chiqish hamda sinovdan o‘tkazish; real vaqt rejimida ishlaydigan, arzon va samarali sensor tizimlarini yo‘lga qo‘yish; tishlarning baraban bo‘ylab joylashuvi va umumiy dizaynini O‘zbekistonning asfalt va beton qoplamalari uchun moslashtirish; shuningdek, mashina operatorlarining malakasini oshirish orqali frezalash samaradorligini yanada yuqori darajaga olib chiqish imkoniyati mavjud.

ISSN 3030-3907

O‘zbekiston sharoitida yo‘l qurilish freza mashinalari tishlarining resursini va ish samaradorligini oshirish maqsadida volfram karbid va nano-qoplamali materiallardan foydalanish, tishlarning geometrik shakllarini va baraban aylanish tezligini ilmiy asosda optimallashtirish, real vaqt monitoring tizimlarini joriy etish orqali yeyilish darajasini nazorat qilish hamda operatorlarning malakasini oshirish orqali texnologik jarayonlarni takomillashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muxamedov, A., & Botirov, A. (2022). *Yo‘l qurilish freza mashinalarining zamonaviy tuzilishi va ishlash prinsiplari*. Toshkent: TAYLKEI nashriyoti.
2. Schmidt, J. (2020). Modern milling technologies for road construction. *Journal of Construction Engineering*, 45(3), 112–120.
3. Caterpillar Inc. (2019). *Hydraulic systems in road milling machines: Optimization and efficiency*. Technical Report, USA.
4. Karimov, A. (2021). *Freza tishlarining yeyilishsını tahlil qilish usullari*. Toshkent: TDYuI nashriyoti.
5. ISO 1985b. (1985). *Er ko‘chirish mashinalari shovqinini o‘lchash bo‘yicha xalqaro standart*.
6. Wirtgen Group. (2021). *Advanced cutting technology for cold milling machines*. Technical Manual, Germany.
7. Zhang, L., & Wang, H. (2023). Wear resistance of carbide-based milling teeth in harsh environments. *Journal of Materials Engineering and Performance*, 32(5), 245–253.
8. Abdullaev, S. (2020). *Yo‘l qurilishi mashinalarining samaradorligini oshirish usullari*. Toshkent: Fan va Texnologiya nashriyoti.
9. Lee, J., & Kim, S. (2022). Optimization of milling drum design for enhanced cutting efficiency. *International Journal of Pavement Engineering*, 23(4), 301–310.
10. Shevchenko, V. I., & Azarov, M. A. (2018). Optimization of milling tools for road construction machinery. Journal of Road Construction, 42(3), 112-118.

ISSN 3030-3907

TOSHKENT SHAHRINING YASHIL HUDUDLARI DINAMIKASI

Samiyev Luqmon Naimovich
Texnika fanlari doktori, dotsent
G‘ulomov Islombek Ilxomjon o‘g‘li
Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti tadqiqotchisi
te*yoshekolog7440@gmail.com*

Annotatsiya: Toshkent shahrining yashil hududlari dinamikasi so‘nggi yillarda sezilarli o‘zgarishlarga yuz tutmoqda. Buni quyidagi asosiy ma’lumotlardan ham ko‘rish mumkin. 2021-yilda Toshkentda yashil hududlar ulushi 26,4 foizni tashkil etgan. Bu har bir fuqaro uchun o‘rtacha 36 kvadrat metr yashil maydonni anglatadi. 2045-yilga qadar bosh rejaga ko‘ra, yashil hududlar maydoni 7 120 gektardan 10 000 gektargacha kengaytirilishi rejalashtirilgan. 2022-yilda ba’zi tumanlarda yashil hududlar darajasi sezilarli darajada kamaygan. Masalan: Shayxontohur – 26 foizga, Yakkasaroy – 23 foizga, Olmazor – 33 foizga, Mirzo Ulug‘bek – 18 foizga kamaygan. Bunday holatlar qurilish ishlari ko‘payishi bilan bevosita bog‘liq.

Kalit so‘zlar: Iqlimiy ko‘rsatkichlar, hududlari dinamikasi, vegetatsiya qoplamasi, issiqxona effekti, vegetatsion frag mentatsiya indeksi, yashil zonalarni inventarizatsiyalash

Аннотация: Динамика зеленых зон города Ташкента за последние годы претерпела значительные изменения. Это видно из следующей основной информации. В 2021 году доля зеленых зон в Ташкенте составила 26,4%. Это означает, что на каждого гражданина приходится в среднем 36 квадратных метров зеленых насаждений. Согласно генеральному плану, к 2045 году площадь зеленых зон планируется увеличить с 7 120 га до 10 000 га. В 2022 году уровень зеленых зон в некоторых районах значительно снизился. Например: Шайхантахур - на 26 процентов, Яккасарай - на 23 процента, Алмазар - на 33 процента, Мирзо Улугбек - на 18 процентов. Такие ситуации напрямую связаны с увеличением объемов строительных работ.

Ключевые слова: Климатические показатели, динамика территорий, вегетационный покров, парниковый эффект, индекс вегетационной фрагментации, инвентаризация зеленых зон.

Abstract: The dynamics of the green areas of the city of Tashkent have undergone significant changes in recent years. This can also be seen in the following basic information. In 2021, the share of green areas in Tashkent was 26.4%. This means an average of 36 square meters of green space per citizen. By 2045, according to the master plan, the area of green areas is planned to be expanded from 7,120

ISSN 3030-3907


hectares to 10,000 hectares. In 2022, the level of green spaces in some districts decreased significantly. For example: Shaykhantakhur - by 26%, Yakkasaray - by 23%, Almazar - by 33%, Mirzo Ulugbek - by 18%. Such cases are directly related to the increase in construction work.

Keywords: Climatic indicators, regional dynamics, vegetation cover, greenhouse effect, vegetation fragmentation index, inventory of green zones.

KIRISH

Toshkent shahri keskin kontinental iqlim zonasida joylashgan bo‘lib, bu yerda mavsumlar o‘rtasidagi keskin farq, yuqori yozgi haroratlar, past qishki haroratlar va yog‘ingarchilikning noaniq taqsimoti kuzatiladi. Iqlim sharoiti, bir tomondan, tabiiy landshaftlarga ta’sir ko‘rsatsa, boshqa tomondan, shahar ekologik muhitining shakllanishida bevosita ishtirok etadi. Ushbu sharoit ekologik barqarorlikni modellashtirishda muhim komponentlardan biri hisoblanadi.

Iqlimiy ko‘rsatkichlar shuni ko‘rsatadiki, Toshkentda 30 yillik o‘rtacha havo harorati 14–15 °C atrofida bo‘lib, yoz oylarida bu ko‘rsatkich 40 °C dan yuqoriga ko‘tariladi, qish oylarida esa −8 °C gacha tushishi mumkin. Bu holat issiqlik orollari effektining kuchayishiga, ayniqsa, shahar markaziy qismlarida asfalt qoplamalari va qurilish materiallarining issiqlikni yutishi tufayli sun’iy mikroiqlim zonalari yuzaga kelishiga olib keladi. Yillik yog‘ingarchilik miqdori o‘rtacha 350–400 mm ni tashkil etadi, asosiy qismi mart-aprel oylarida yog‘adi, yoz oylarida esa deyarli yog‘in kuzatilmaydi (1-rasm). Yog‘ingarchilikning mavsumiy notekis taqsimoti vegetatsiya davrida suv tanqisligiga olib keladi, bu esa yashil hududlarning hayotiyligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.



1-rasm. Oxirgi 30 yillik uchun oylik o‘rtacha havo harorat va o‘rtacha oylik yog‘ingarchilik yig‘indisi miqdori

Shuningdek, yashil hududlar (parklar, daraxtzorlar, hiyobonlar) shaharning ekologik barqarorligida muhim rol o‘ynaydi. So‘nggi yillarda olib borilgan “Yashil makon” umummillik harakatini amalga oshirilishiga qaramay qaramay, umumiy yashil maydonlar nisbati hali ham xalqaro standartlardan past darajada qolmoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, aholining har 1 kishisiga to‘g‘ri keladigan yashil hudud

ISSN 3030-3907

maydoni 7–9 m² atrofida bo‘lib, Sog‘liqni saqlash tashkilotining 15 m² talabi bilan solishtirganda bu yetishmovchilik aniq seziladi. Yashil hududlarning yetishmasligi issiqlikni yutuvchi sirtlarning ko‘payishiga, bioxilma-xillikning kamayishiga va shahar mikroiqlimining yomonlashuviga olib keladi.

Toshkent shahri O‘zbekistonning iqtisodiy, siyosiy va madaniy markazi sifatida kuchli urbanizatsiya bosqichini boshdan kechirmoqda. 2023-yil holatiga ko‘ra shaharda 3,1 milliondan ortiq aholi istiqomat qiladi, bu son har yili o‘rtacha 2,1% ga oshmoqda. Shahar hududining nisbatan cheklanganligi (336 km²) va mavjud infratuzilmaning eskirganligi fonida, ushbu demografik o‘sish muqarrar ravishda ekologik yuklamaning oshishiga olib kelmoqda. Ekologik tizimlar o‘z imkoniyatining chegarasiga yaqinlashgan: tabiiy resurslar ekspluatatsiyasi, chiqindi hajmlarining ko‘payishi, havoning ifloslanishi, yashil hududlarning qisqarishi va shahar mikroiqlimining o‘zgarishi – bularning barchasi bir-biri bilan bog‘liq, murakkab ekologik inqiroz elementlaridir.


Toshkent shahridagi yana bir yirik muammo — yashil hududlarning qisqarishi va shahar landshaftining sun’iylashuvidir. 1990-yillarda Toshkent shahri aholining har bir kishisiga to‘g‘ri keladigan yashil maydon 14 m² atrofida bo‘lgan bo‘lsa, 2020-yilda bu ko‘rsatkich 7,6 m² ga tushgan. Bu esa JSST tavsiya qilgan me’yor — 15 m² — dan ikki baravardan kam degani. “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida 2022-yil davomida 2 milliondan ortiq daraxt ekilgan bo‘lsa-da, mavjud yashil hududlarning qurilish hududlariga aylanishi tufayli real yashil maydonlarning o‘sishi sezilmayapti. Ayniqsa Yunusobod, Mirzo Ulug‘bek va Yakkasaroy tumanlarida park va hiyobonlar qurilish obyektlari bilan almashtirilgan holatlar ko‘paymoqda.

Toshkent shahrining ekologik barqarorligi uchun yashil hududlar — ya’ni daraxtlar, parklar, bog‘lar, vegetatsion maydonlar va rekreatsion landshaftlar — muhim tabiiy tamoyilni tashkil qiladi. Bu hududlar nafaqat shahar mikroiqlimini muvozanatda ushlab turadi, balki atmosfera havosining tabiiy tozalanishiga, tuproq eroziyasining oldini olishga va aholi salomatligining yaxshilanishiga bevosita ta’sir qiladi. Biroq, so‘nggi ikki o‘n yillikda urbanizatsiyaning jadal kechishi fonida Toshkentda yashil hududlar qisqarishi kuchayib, ekologik muvozanat sezilarli darajada buzilmoqda.

2000–2024 yillar oralig‘ida vegetatsiya qoplamasining o‘zgarish dinamikasi yaqqol salbiy yo‘nalishda kechgan. LULC (yer usti qoplamasi) tahlillariga ko‘ra, 2000-yilda yashil hududlar umumiy shahar yuzasining 23,5% ini tashkil qilgan. Keyingi yillarda bu ko‘rsatkich yilma-yil pasayib, 2010-yilga kelib 20% dan, 2020-yilga yaqin esa 15% lik ekologik muvozanat chegarasidan pastga tushgan. 2024-yil holatida vegetatsiya bilan qoplangan sirt atigi 11,4% ni tashkil qilmoqda. Bu

ISSN 3030-3907

kamayish — shahar rivojlanishning vegetatsiya hududlari hisobiga olib borilayotganini ko‘rsatadi. Quyidagi grafik ushbu 25 yillik tendensiyani raqamli asosda aks ettiradi (2-rasm).




2-rasm. Toshkent shahrida yashil hududlar (3 metrdan katta vegetatsiya) qoplamasining yillik o‘zgarishi (2000–2024)

Vegetatsiya sathining bu darajada qisqarishi ko‘plab ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Avvalo, fotosintez faoliyati pasaygani sababli atmosfera havosidagi karbonat angidrid miqdori oshadi va bu issiqxona effekti kuchayishiga sabab bo‘ladi. Shuningdek, tuproqning namlikni ushlab turish salohiyati susayadi, yer sathi harorati ortadi va suvlarning bug‘lanish tezligi oshadi. Bu holatlar, ayniqsa, yozgi mavsumda havo ifloslanishining ortishiga va “shahar issiqlik orollari” effekti kuchayishiga olib keladi. O‘z navbatida, bu effekt PM2.5 va NO_2 kabi zararli zarrachalarning havoda uzoq saqlanishiga sabab bo‘lib, aholi salomatligiga tahdid soladi.

Yashil hududlarning qisqarishi nafaqat ekologik muvozanatga, balki shahar aholisi uchun psixologik va sog‘liq nuqtai nazaridan rekreatsion imkoniyatlarining kamayishiga ham olib kelmoqda. Ayrim tumanlar, masalan Yakkasaroy, Chilonzor, Shayxontohur va Mirobod, avvalgi yillarda boy yashil massivlarga ega bo‘lgan bo‘lsa, 2020-yillarga kelib bu hududlardagi vegetatsion zichlik 50% dan ortiq kamaygan. Yangi rivojlanayotgan hududlarda esa — xususan Sergeli, Bektemir va Yangihayotda — yashil inshootlar infrastrukturaning asosiy komponenti sifatida kiritilmayapti, bu esa kelajakda ekologik yuklamaning yanada ortishiga sabab bo‘ladi.

ISSN 3030-3907

a) b)




3-rasm. Toshkent shahrida yashil qoplama fazoviy xaritasi: a) 2000-yil holati va b) 2024-yil holati

Yashil maydonlar qisqarishini fazoviy xaritalar orqali ham ko‘rish mumkin. Quyidagi GAT ga asoslangan fazoviy xaritalarda 2000 va 2024-yillardagi vegetatsion holatni aniq ko‘rish mumkin (3-rasm).

Yuqoridagi tahlil Toshkent shahrida yashil hududlar qoplamasining barqaror pasayishini ko‘rsatadi va bu ekologik izolyatsiyani kuchaytiruvchi muhim xavf sifatida e’tirof etiladi. Bunga qarshi chora sifatida vegetatsiya rekonstruksiyasi, yashil inshootlar siyosati, ko‘chalar va turar-joy massivlarida majburiy vegetatsion chiziqlar joriy etish, va GAT yordamida yashil zonalarni inventarizatsiyalash zarurligi ta’kidlanadi.

Toshkent shahrida ekologik holatni kompleks baholash uchun tanlab olingan indikatorlar asosida GAT texnologiyalari yordamida fazoviy jihatdan xaritalashtirildi. Har bir indikator o‘ziga xos metodologik asosda hisoblanib, alohida ma’lumot manbalaridan foydalanildi. Xaritalar raster formatda ishlab chiqilib, indikator qiymatlari bo‘yicha xavf darajalari rangli vizual ko‘rinishda ifodalandi. Quyida xaritalarning har biri bo‘yicha tavsif va rasm joylashtirish o‘rinlari ko‘rsatilgan.



4.4-rasm. Toshkent shahrida yashil tizimlarning fragmentatsiya darajasi xaritasi (NDVI-NDBI, 2024)

ISSN 3030-3907

Ushbu indikator — vegetatsion frag mentatsiya indeksi — Sentinel-2 (2022–2023) tasvirlaridan NDVI va NDBI indekslarini ayirish orqali hisoblandi. Ushbu indeks 10 m rezolyutsiyada ishlab chiqilgan bo‘lib, vegetatsion zonalarning ichki bog‘liqlik darajasini aniqlaydi. Chilonzor, Yakkasaroy, va Shayxontohur tumanlarining markaziy qismlarida NDVI > 0.3 bo‘lgan zonalar orasida qattiq fragmentatsiyalangan qismlar aniqlandi. Fragmentatsiya indeksi o‘rtacha 0.66 atrofida bo‘lib, bu o‘rtacha darajadagi parchalanishni bildiradi. Park va yashil hududlar atrofidagi yangi qurilishlar, yo‘l kengaytmalari, va sanoat infratuzilmasi ushbu fragmentatsiyani kuchaytirgan.

Vegetatsiya fragmentatsiyasi indeksiga ko‘ra, Yangihayot (0.74), Sergeli (0.70) va Mirobod (0.65) tumanlarida yashil zonalar ichida ekologik bog‘liqlik zaiflashgan. Bunda hududlar o‘rtasidagi sun’iy to‘siqlar, qurilishlar va transport yo‘llarining soni rol o‘ynagan.

XULOSA

Shahar landshaftining o‘zgarishiga doir baholashlar urbanizatsiyaning kuchayishi va yashil hududlarning qisqarishi natijasida ekologik muvozanat izdan chiqayotganini ko‘rsatdi. yashil hududlarning stressga tushishi ularning biomassasi va ekologik xizmatlarini pasaytiradi, bu esa ko‘rsatib o‘tilgandek vegetatsiya qisqarishini tezlashtiradi. Yashil hududlarning umumiy qamrovi 2000-yildan 2024-yilgacha 27.2% dan 18.1% gacha qisqargani kuzatildi; ayniqsa, Mirzo Ulug‘bek va Sergeli tumanlarida so‘nggi 20 yilda yashil zonalar 40% dan ortiq kamaygani isbotlandi. Toshkent shahrining iqlimi va ekologiyasi o‘zaro bog‘liq va bir-birini kuchaytiruvchi murakkab tizimni tashkil etadi. Iqlim o‘zgaruvchanligi, atmosfera havosining ifloslanishi, suv va tuproq resurslarining degradatsiyasi, chiqindi tizimidagi muammolar va yashil hududlarning yetishmovchiligi ekologik barqarorlik uchun jiddiy tahdid hisoblanayotganligidan darak beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Salomova F. I., Ahmadalieva N. O., Sadullaeva K. A., Sherkuzieva G. F., Yarmukhamedova N. F., Nurmatov B. Q. Dust storm and atmosphere air pollution in Uzbekistan // Central Asian Journal of Medicine. – 2022. – №2. – P. 36–51.
2. UZHYDROMET. Tsentr gidrometeorologicheskoy sluzhby Respubliki Uzbekistan. [Elektronnyy resurs]. – URL: https://hydromet.uz/.
3. Statistika agentligi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. [Elektronnyy resurs]. – URL: https://stat.uz/uz/.
4. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi. Xarobadan yashil bog’gacha: Birinchi jamoat yashil

ISSN 3030-3907

parki aholining sevimli maskanlaridan biriga aylanadi. [Elektronnyy resurs]. – 2025, 15 aprel. – URL: https://gov.uz/oz/eco/news/view/46090.

5. Ubayev R. O‘zbekistonda chiqindilarni boshqarish va tizimni rivojlantirish uchun nima qilish kerak? // ProReforms. – 2025, 15 aprel. – [Elektronnyy resurs]. – URL: https://proreforms.uz/uz/publications/ozbekistonda-chiqindilarni-boshqarish-va-tizimni-rivojlantirish-uchun-nima-qilish-kerak-172.

6. Abduqodirova M., Ismoilkhodjayev B. Treatment of polluted municipal wastewater in Tashkent // E3S Web of Conferences. – 2021. – Vol. 264. – P. 01052.

7. Tursunov O., Karimov I., Śpiewak K., Hu X., Zhou Y., Kustov A., Uvarov R. Comprehensive study on social, compositional and thermal aspects of household solid waste for waste-to-energy potential estimation in Tashkent city // Energy Reports. – 2024. – Vol. 12. – P. 430–441.

8. Zebert E. A., Akinshina N. G., Mitusov A. V. Dust Retaining Capacity of Deciduous and Coniferous Trees in Tashkent City, Uzbekistan // Central Asian Journal of Water Research. – 2022. – Vol. 8, №1. – P. 57–78.

9. Charyev R. R., Ismailova A. I., Mirzaev G. R. Pollution of surface water of the Tashkent region of the Uzbekistan Republic // Vestnik Orenburgskogo gosudarstvennogo universiteta. – 2017. – №12 (212). – P. 78–80.

10. Alikhanov B., Alikhanova S., Oymatov R., Fayzullaev Z., Pulatov A. Land cover change in Tashkent province during 1992–2018 // IOP Conference Series: Materials Science and Engineering. – 2020. – Vol. 883, №1. – P. 012088.

ISSN 3030-3907

MATHEMATICAL TECHNIQUES FOR PROCESSING MIXED-FORMAT DATA AND THEIR VISUALIZATION IN PREDICTIVE MODELING

Xayrullayev Mo‘minbek
Tashkent State University of Economics,
mominbek97@gmail.com
Norqulova Ziyoda
Tashkent State University of Economics,
ziyodanorqulova88@gmail.com
Dinora Gulmurodova
Tashkent State University of Economics, dinoragulmurodova1@gmail.com

Abstract. In today's data times, the processing of text and numerical data in the database is becoming very important. Numerical data is used in accounting, statistics, predictive models and on many fronts that are important to society. For example, financial statements, income and expenses are expressed in a digital format, since this is calculated. But the fact that these data are mixed with other characters in some cases, that is, not in the pure number case, makes the analysis difficult. It is also an important process to transfer textual information to a numerical type to display it in the analysis. Searching and analyzing such data is performed using specialized methods and algorithms, such as full-text search or text indexing.

Keywords: encoding methods, textual data processing, numerical data analysis, data preprocessing, numerical data, missing value imputation.

Introduction

A well-designed database system must utilize optimal data types to improve overall efficiency. The main task of this research is to clean mixed-type data (i.e., data with a mixture of text and numeric characters) and represent them in a single numeric form. This is because the ability to perform visualization operations on numeric or text values accompanied by various characters (for example: %, $, ,, () and others) and to enter this data into artificial intelligence (AI) or machine learning (ML) models is limited [10].

Therefore, this study extensively covers the methods of preliminary data cleaning, including the steps of removing special characters and converting them to float or integer, and methods of converting text columns to numeric values (encoding). Especially since ML and AI models cannot work directly with text values, converting them to a numeric form is of great practical importance [2]. After cleaning the data, the possibilities of visualizing, analyzing and entering them into models increase. However, only the cleaning and encoding processes are

ISSN 3030-3907

considered within the scope of this study. The issue of filling in missing values (NaN) will be analyzed in depth in future research [11-12].

Recent research places emphasis on the importance of numerical and textual data to increase the effectiveness of data analytics and prediction models. Especially for structured and unstructured data synthesis, it plays an important role in the forward development of areas such as financial, healthcare and marketing [13].

For example, a study that proposed a multimodal in-depth learning system that combined textual financial news and digital metrics to predict the company's credit ratings [1].

Similarly, in the field of online reviews, researchers have developed many methods for collaborative analysis of rating scores and textual feedback. This method has been successfully clustered by modeling emotions and themes from the text in conjunction with the distribution of consumer opinion assessments [3]. Another notable contribution was provided by Applied Intelligence, where researchers studied feature selection strategies to identify AI-generated comments [4].

Methodology

The study utilizes the NASDAQ1 dataset, containing stock-related information including names, sectors, industries, and price changes. Initial inspection revealed missing values and mixed-format features that required preprocessing.

Data Cleaning

Columns with over 50% missing values were dropped: earnings_per_share, annualized_dividend, dividend_pay_date, and symbol_yield.

The Unnamed: 0 column was removed as it was not used as an index.

Textual Data Cleaning Textual columns often contained special characters such as $, %, (,). These were removed using the following function:

Let's assume:

$$\sum_{i=1}^{s} - \ all\ set\ of\ sign,$$

$x = s_1, s_2, \ldots, s_n, s_i \in \sum_{i=1}^{s}$ given text values,

$A = \{0,1,2,\ldots,9,\ldots\}$ – only numerical sings and dot.

The cleaning function is:

$$Clean(x) = concat(s_i \in x \mid s_i \in A), A = \{0,\ldots,9,..\} \quad (1)$$

Here

ISSN 3030-3907

concat() is an operator for adding characters one after another (i.e., creating new text),
only characters belonging to the A set (numbers and periods) are retained,
other characters (%, $, (,), /,) are removed.

By applying this function to the corresponding columns, the values of the mixed type column “pricing_percentage_changes”, “symbol_yield”, “annualized_dividend”, “dividend_pay_date”, “earnings_per_share” were cleaned. After removing the extra characters with this function, the data can be converted to a numeric type and used in the model.

At this point, the question arises, what if the data consists entirely of words? In this case, it can be converted to numeric data using Encoding methods according to the data types. In this case, the methods are selected according to the data types. The dataset can have the following data types:

- Categorical data
- Ordinal data
- Numerical data
- Logical data

Also, the available encoding methods are as follows:
One-Hot Encoding: Suitable for unordered categories.
Ordinal Encoding: Suitable for ordered categories (e.g., education levels).

Label Encoding: Each category is assigned a unique integer.

Categorical (nominal) data represents categories or groups and has no order. For example, colors, cities, gender and so on. One-Hot Encoding is a method for converting categorical data into a numerical format in machine learning and data preprocessing. This method is used, in particular, in artificial intelligence and analytical models to create a numerical representation of categorical values [4]. One of the advantages of this method is that it eliminates ordinal dependencies - that is, it prevents the misconception of which of the categories is larger or smaller.

If we have :
$C = \{c_1, c_2, \ldots, c_k\}$ – k unique categories,
$x \in C$ – x chosen category
Then:

$$OneHot(x) = [\delta(x = c_1), \delta(x = c_2), \ldots, \delta(x = c_k)]$$

Here :

$$\delta(x = c_i) = \begin{cases} 1, if\ x = c_i \\ 0, \quad else \end{cases}$$

ISSN 3030-3907

Table 1.

	Name	Sector	Industry
Name	1	0	0
Sector	0	1	0
Industry	0	0	1

Ordinal data is also categorized, but it has an order and is encoded using Ordinal Encoding. Goal is representing internally ordered categories (e.g. "Low" < "Medium" < "High") with ordered integers. Categories are represented by numbers. Ordinal Encoding is a method of converting categorical data into a numeric format by assigning ordinal numbers (0, 1, 2, 3...) to the category values. This method preserves the ranking relationship between the category values. If we have:

$C = \{c_1, c_2, \ldots, c_k\}$ – sorted category set and $x \in C$

$f: C \to Z$ -mapping according to order

Then:

$$Ordinal(x) = f(x)\,, f(c_i) = i - 1$$

For example:

If C = {“low”,” medium”, “high”} then: f (“low”)=0, f (“medium”) =1, f (“high”) =2.

We use Label encoding to assign a numerical index to each of the category values, even if they are not ordered, in which each category is replaced by a single number. As above, if we have:

$$C = \{c_1, c_2, \ldots, c_k\} - unique\ \ category\ set\ and\ x \in C$$

Then:

$$\text{Label(x)} = \text{Index}_c\text{(x)}$$

Here $\text{Index}_c\text{(x)}$ – ordinal number of the value of x within C (usually starting from 0).

For example: if C= {“retail” , ”finance” ,”tech”}, then: Label(“finance”) =1

For the Nasdaq dataset selected above, all three methods were used and the columns “name”, “sector”, and “industry” were converted to numeric format:

Table 2.

	name	sector	industry
0	617	10	30
1	4943	10	31
2	430	10	66
3	429	10	66
…	…	…	…

ISSN 3030-3907

8335	8207	12	141
8336	8208	12	141
8337	8179	12	141
8338	8180	12	141

After all mixed-type columns and text columns are transferred to their numerical appearance, we fill in its missing values (Nan). This filling process will also necessarily depend on the structure of the data. In completing the deficient values, the median and mean were used in our research work as dataset was put on standby:

Mean:

$$\overline{x} = \frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n} x_i$$

Here n - number of non-Nan available values,

For skewed distributions, Nan values replaced using median, which is less sensate to outliers:

$$Median = \begin{cases} x_{n+1/2}, if\ n\ is\ odd \\ \dfrac{x_{n/2} + x_{(n/2+1)}}{2}, if\ n\ is\ oven \end{cases}$$

Here x- values in the ordered (incremental) sequence.

After we have cleaned up columns like “pricing_percentage_changes” above using the formula (1), then one can easily fill in Nan values with these mean or median methods. Also if the dataset did not have the need to transfer textual values to the numerical type, filling its Nan values with mode- that is, the most common value, would also have done very well. It can also be easily applied in numbered columns:

$$Mode(X) = arg\ \max_{x_i} f(x_i)$$

Where $f(x_i)$ is the frequency of value x_i in the dataset.

Naturally, these methods are selected based on the column values in the dataset. All mixed-type columns in the dataset were cleaned, text columns were transferred to the numerical type, and all Nan values were supplemented by the above methods.

Results

Visualization of Preprocessed Data


So, now it is possible to carry out an analysis on it, visualizing the dataset, which has come to a ready-made state. That all the data has been converted to a

ISSN 3030-3907

numeric type, it is time to analyze the results visually and apply models to it [5]. To understand and analyze the data, it is important to display it in a graphical form, which can be histograms, charts, and network graphs [6].

Some values in the dataset were originally represented by special characters, and a pre-cleaning operation was performed to convert them to numeric float type. This cleaning method allowed for numerical analysis of the data, training model and its visualization.

Values in the "pricing_percentage_changes" column are mostly concentrated around 0%, but there is a significant density in the range of ±5%, in figure 1. The distribution is right-skewed, indicating that extremely high percentages of price changes are rare.



).

Figure 2.

The boxplot diagram identified outliers. For example, some companies had price changes below -20% or above +20%. This indicates the need to consider or transform these values separately during statistical analysis. These unusual values can be the result of possible technical errors, market reactivity, or inconsistencies in data entry.




Figure 3.

ISSN 3030-3907

Based on the refined values of the “pricing_percentage_changes” column, average price changes across different industries were analyzed. The visualization shown in Figure 3. reveals differences across sectors.




Figure 3.

The graph shows that some industries (e.g. energy, financial services) were more affected by average price changes than others. In contrast, price changes in some other industries were minimal and stable. These differences may be due to different market conditions or risks specific to the industry. Such a group visualization is important for sectoral analysis and shows the need to consider the sector factor as a parameter in building a model [15].

Discussion

Working with numerical and textual data simultaneously in a single analytical workflow has proven to be both a challenge and an opportunity in data science. The results of this study point out the importance of preprocessing, encoding, and visualization techniques to transform raw, mixed-format datasets into structured formats that can be effectively analyzed and modeled. Preprocessing significantly affects the predictive power of deep learning systems, particularly when multiple data modalities are combined [8].

The use of encoding techniques such as One-Hot Encoding, Ordinal Encoding, and Label Encoding enabled the transformation of categorical text data into a machine-readable format. These methods differ in terms of complexity and suitability depending on whether the data is ordinal or nominal. In this study, the use of all three methods showed how hybrid encoding strategies can be tailored to

ISSN 3030-3907

suit the data characteristics. Proper encoding improves the detection of AI-generated content when using both numeric and textual features [9].

In addition, textual data cleaning significantly improved the quality of the dataset. By removing special characters and redundant symbols, the data became suitable for numeric transformation and integration into predictive models. Furthermore, the visualization techniques applied (histogram, boxplot, and bar chart) played a crucial role in understanding data distribution and identifying anomalies. For example, the boxplot effectively revealed outliers in price percentage changes, which may indicate anomalous stock behavior. Such graphical visualizations are not only useful for exploratory data analysis (EDA) but are also fundamental in communicating insights to stakeholders and guiding model selection.

Despite the successful outcomes, certain drawbacks exist. The dataset, while suitable for demonstrating methods, was relatively small in scale. In larger datasets, One-Hot Encoding can lead to the “high dimensional complexity”, making memory usage and computation time significant bottlenecks. In future studies, we will explore methods to not only prepare the dataset for model, but also to fill in missing values, therefore, should investigate dimensionality reduction techniques such as PCA or feature selection heuristics to optimize such encoding results.

Conclusion

This article examines a practical approach to textual and numerical data processing methods, their mathematical foundations, and visualization. Also, data visualization was performed to understand and analyze the data. Data distribution and anomalies were analyzed using graphical tools such as histograms, boxplots, and bar charts. Therefore, there are special algorithms for filling Nan values in the world, there are many special algorithms for calculating nan values, in our future work we will focus on them in detail, so far we have limited ourselves to simple mathematical methods.

This proposed methodology will help to obtain accurate analytical conclusions from the dataset and make decisions, simplify the workflow, as well as expand the possibilities of forecasting. The article outlines the fundamentals and practical methods of managing text and numerical data using Python and late distributed data science libraries. In general, this strategy is a valuable resource for effective processing and analysis.

References

1.Mahsa Tavakoli, Rohitash Chandra, Fengrui Tian, Cristián Bravo. Multi-modal Deep Learning for Credit Rating Prediction Using Text and Numerical Data (2025).

ISSN 3030-3907

2.Joshi, A. P., & Patel, B. V. (2019). Data Preprocessing: The Techniques for Preparing Clean and Quality Data for Data Analytics Process. Oriental Journal of Computer Science and Technology.
3.Elena Barzizza, Nicola Biasetton, Marta Disegna, Luigi Salmaso. Combining Textual and Rating Data from Online Reviews to Cluster Customer Feedback. Springer (2025).
4. Seung-Cheol Lee, Dong-Gun Lee, Yeong-Seok Seo. Determining the Best Feature Combination Through Text and Numerical Data. Springer (2023).
5. Norqulova, Ziyoda. "DATA VISUALIZATION STEPS TO SORT DATA BY REMOVING MISSING VALUES AND CONVERTING DATA TO NUMERIC TYPE." DTAI–2024 1.DTAI (2024): 37-39.
6.Muminov, Bahodir, and N. Z. Norqulova. "VIZUALIZATSIYA MASALALARIDA SUN'IY INTELLEKTNING ROLI." DIGITAL TRANSFORMATION AND ARTIFICIAL INTELLIGENCE 1.1 (2023): 7-14.
Tomas Hrycej, Bernhard Bermeitinger, Matthias Cetto, Siegfried Handschuh. Mathematical Foundations of Data Science. Springer, 2023.
7.Beknazarova, S. S., and M. Sh Bekmirzayeva. "Study of the Degree of Influence of Fog on Images in Visualization Systems." (2024).
8.Mahsa Tavakoli, Rohitash Chandra, Fengrui Tian, Cristian Bravo. Multi-modal Deep Learning for Credit Rating Prediction Using Text and Numerical Data Streams. Applied Soft Computing. 2025.
9.Jooyoung Lee, Thai Le, Jinghui Chen, Dongwon Lee. Identifying Artificial Intelligence–Generated Content in Online Q&A Platforms. Journal of Information Science. 2023.
10.Kovalerchuk, B., & McCoy, E. Explainable Machine Learning for Categorical and Mixed Data with Lossless Visualization. 2023.
11.Côté, P.-O., Nikanjam, A., Ahmed, N., Humeniuk, D., Khomh, F. Data Cleaning and Machine Learning: A Systematic Literature Review. 2023.
12.Ahmad, A. F., Sayeed, M. S., Alshammari, K., Ahmed, I. Impact of Missing Values in Machine Learning: A Comprehensive Analysis. 2024.
13.Kaur, S., Sharma, R. Structured vs. Unstructured Data in Machine Learning Prediction of Suicide Risk: A Systematic Review and Meta-Analysis. Frontiers in Digital Health.2022.
14.Maćkowiak, B., Moench, E., Wiederholt, M. Sectoral Price Data and Models of Price Setting. 2009.

ISSN 3030-3907

Bunday yondashuvlar kod sifatini baholashda shartli ehtimollik, statistik o‘zgaruvchilar, yashirin Markov modellar (YMM), Bayes tarmoqlari kabi ilg‘or texnikalar yordamida aniqlikni oshirish va xatoliklarni minimallashtirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, ushbu modellar dasturchilarning xatolarini avtomatik tahlil qilish, xatolik sabablarini tushuntirish va individual baholash mezonlarini ishlab chiqish kabi qo‘shimcha imkoniyatlarni taqdim etadi.

Xorijiy tadqiqotlar tahliliga ko‘ra, dasturiy ta’minot sifatini avtomatik baholashda matematik modellar va ehtimollik usullari sezilarli yutuqlarga erishish imkonini bermoqda. Bishop tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda dastur kodini avtomatik baholashda probabilistik grafik modellar, xususan, yashirin Markov modellarining samaradorligi o‘rganilgan [1]. Murphy o‘z izlanishlarida avtomatlashtirilgan baholash jarayonlarida statistik o‘rganish va ehtimollik tahlili algoritmlarini qo‘llash natijalarini taqdim etgan [2]. Rabiner esa yashirin Markov modellarining tabiiy tilni qayta ishlash va kodni avtomatik verifikatsiyalashdagi afzalliklarini o‘z ishida batafsil yoritgan [3].

Bundan tashqari, Sutton va Barto‘lar tomonidan ilgari surilgan mustahkamlangan o‘rganish (reinforcement learning) algoritmlari kodni avtomatik baholash tizimlarini yanada takomillashtirish imkoniyatlarini o‘rganishda muhim rol o‘ynaydi [4]. Koller va Friedman esa probabilistik grafik modellar asosida kod tekshiruv tizimlarining samaradorligini oshirish bo‘yicha o‘z qarashlarini ilgari surgan.

Mazkur ilmiy manbalar asosida, Markov zanjirlari va ehtimollik modellaridan foydalangan holda kodni avtomatik baholash jarayoni nafaqat dasturiy ta’minot sifatini yaxshilashga, balki jarayonni avtomatlashtirish orqali inson omilini kamaytirishga ham xizmat qilishi aniqlandi. Shu bois, xorijiy olimlarning tadqiqot

ISSN 3030-3907

natijalarini inobatga olgan holda, kodni baholashning matematik modellar asosidagi yondashuvlari chuqur tahlil qilish zaruriyati mavjud.

Methods (Metodlar). Kodni baholash jarayonida **Markov zanjirlari** (Markov Chains) matematik modellashtirish va ehtimollar nazariyasiga asoslangan samarali usullardan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv dasturiy ta’minot sifatini baholash, kodni optimallashtirish va dasturiy xatolarni aniqlashda qo‘llaniladi.

Markov zanjirlari vaqt bo‘yicha o‘zgaruvchi holatlar to‘plamidan iborat bo‘lib, ular orasidagi o‘tishlar **ehtimollik qonuniyatlari** asosida aniqlanadi. Dasturiy kodni baholash jarayonida Markov zanjirlari bir nechta maqsadlarda ishlatilishi mumkin.



Rasm 1. Markov zanjirlaridan foydalanishning asosiy maqsadlari

Markov modeli asosida kodning bajarilish jarayonini tahlil qilish.

Markov modeli orqali kodning bajarilish jarayoni diskret holatlar va o‘tish ehtimolliklari bilan ifodalanadigan stokastik jarayon[8] sifatida modellashtiriladi. Ushbu yondashuv dastur kodining dinamikasini chuqur tahlil qilish va uning ishlash xususiyatlarini baholash imkonini beradi. Markov zanjirlari asosida bajarilayotgan jarayonning har bir bosqichi oldingi holatga bog‘liq bo‘lib, kelajak holatlar faqatgina joriy holat orqali aniqlanadi. Bu **Markov xususiyati** deb ataladi va matematik jihatdan quyidagicha ifodalanadi:

$$P(X_{n+1}|X_n, X_{n-1}, \dots X_0) = P(X_{n+1}|X_n), \qquad (1)$$

Bu yerda X_n -Markov jarayonining n-bosqichdagi holatini ifodalaydi.

Markov zanjirlari diskret vaqtli stokastik jarayonlar bo‘lib, ularning qo‘llanilishi kodni avtomatik baholash jarayonlarini formalizatsiya qilish va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

[8] “Stokastik jarayon” deganda ehtimollik asosida rivojlanadigan, ya'ni natijasi oldindan aniq bo‘lmagan, lekin ma'lum ehtimolliklar bilan bashorat qilinadigan tasodifiy hodisalar ketma-ketligi tushuniladi.

ISSN 3030-3907

Markov modeli odatda bir nechta komponentlardan iborat bo‘lib, dastur kodining turli bosqichlari Markov zanjirining diskret holatlari sifatida qaraladi. Ushbu holatlar quyidagilarni o‘z ichiga olishi mumkin:

- Sintaktik to‘g‘rilik (Syntactic Correctness): Kodning sintaktik jihatdan to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligi.
- Semantik muvofiqlik (Semantic Consistency): Kod bajarilishining mantiqiy jihatdan to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri bo‘lishi.
- Funksional tekshirish natijalari (Functional Verification): Kodning kerakli natijani qaytarishi yoki qaytarmasligi.

Holatlar majmuasi quyidagi ko‘rinishda ifodalanadi:

$$S = \{s_1, s_2, \dots, s_n\}, \quad (2)$$

shaklida beriladi, bu yerda har bir s_i bajarilishi mumkin bo‘lgan dastur kodining alohida segmentini ifodalaydi.

O‘tish ehtimolliklari (Transition Probabilities)

Kodning bajarilish jarayonida turli holatlar orasidagi o‘tishlar o‘tish ehtimolliklari matritsasi yordamida tavsiflanadi:

$$P = \{p_{ij}\}, \quad (3)$$

Bu yerda p_{ij}-holat Si dan Sj ga o‘tish ehtimolligi, ya’ni kod tekshiruvidan o‘tayotganda xatolik yuzaga kelish ehtimoli yoki muvaffaqiyatli bajarish ehtimoli. Ushbu ehtimolliklar empirik ma’lumotlar, mashinani o‘rganish modellarining chiqish natijalari yoki statistik tahlillar asosida aniqlanishi mumkin:

$$p_{ij} = P(X_{n+1} = S_j | X_n = S_i), \quad (4)$$

Bu model yordamida dastur kodining bajarilishida xatolik yuzaga kelish ehtimoli, xatoliklarning qanday taqsimlanganligi hamda ularnig ehtimoliy oqibatlarini oldindan baholash mumkin.

Bu yondashuv dastur kodining bajarilishining eng ehtimolli yo‘llarini aniqlash va potentsial xatoliklarni prognoz qilish imkonini beradi.

O‘rtacha o‘tish vaqti (Mean Firs Passage Time-MFPT)

O‘rtacha o‘tish vaqti Markov modeli yordamida kodning qaysi holatga o‘tishining o‘rtacha vaqtini hisoblash uchun ishlatiladi. MFPT quyidagi formula orqali aniqlanadi:

ISSN 3030-3907

$$m_{ij} = \mathrm{E}[T_{ij}], \quad (5)$$

bu yerda T_{ij}-dastur kodining holat s_i dan holat s_j ga birinchi marta o‘tish vaqti. Ushbu o‘lchov dastur kodining samaradorliginibaholash va ba’zi holatlarda vaqtni optimallashtirish uchun ishlatiladi

Yakuniy holat (Absorbing state)

Kod tekshirish jarayoni yakuniy holat bilan tugaydi. Yakuniy holatlarning ikkita asosiy turi mavjud:

- Muvaffaqiyatli bajarilish holati ($S_{correct}$): Kod to‘liq to‘g‘ri ekanligi tasdiqlangan.
- Xatolik aniqlangan holat (S_{error}): Kodda xatolik mavjudligi aniqlangan.

Bu holatlarning tavsifi quyidagicha bo‘lishi mumkin:


$$S = \{S_1, S_2 \ldots, S_{correct}, S_{error}\}, \quad (6)$$

Agar kod $S_{correct}$ holatiga o‘tsa, u to‘g‘ri deb baholanadi, aks holda S_{error} holatiga o‘tadi va xatolik sabablarini aniqlash jayoni boshlanadi.

1. Markov modeli asosida kodni optimallashtirish.

Markov jarayonlari kodni optimallashtirishda ehtimollik asosida tahlil qilish va samarali boshqarish imkonini beruvchi matematik vosita hisoblanadi. Ushbu yondashuv kodning bajarilish jarayonini stokastik model sifatida tavsiflab, uning samaradorligini oshirishga yordam beradi. Kod bajarilishining turli bosqichlarini o‘tish ehtimolliklari bilan tavsiflab, ortiqcha yoki kamdan-kam ishlatiladigan qismlarni aniqlash, resurslarni taqsimlash va ishonchlilikni oshirish imkonini yaratadi.

ISSN 3030-3907



Rasm 2. Kodni optimallashtirish yo‘nalishlari

Markov modeli dasturiy kodni baholash va optimallashtirishda samarali vosita bo‘lib, kod bajarilish jarayonining ehtimollik asosida tahlil qilinishiga imkon yaratadi. Ushbu model kodning turli holatlari orasidagi bog‘liqlikni o‘rganish, xatoliklarni aniqlash va ishlash samaradorligini oshirish uchun qo‘llaniladi. Amaliy jihatdan Markov modeli quyidagi usullar bilan dasturiy kodni baholashga yordam beradi:

1. Statistik tahlil

Kodning ishlash tarixidan foydalangan holda ehtimollik jadvali tuziladi va dastur bloklari orasidagi o‘tish ehtimolliklari tahlil qilinadi. Bu jarayonda:

- Dastur kodining bajarilishi jarayonida **turli funksiyalar orasidagi bog‘liqliklar** aniqlanadi.
- **Xatoliklar ehtimolligi** statistik ma’lumotlar asosida hisoblanadi.
- Olingan natijalar asosida kod samaradorligini oshirish uchun **keraksiz yoki noaniq kod yo‘nalishlari optimallashtiriladi.**

Misol: Faraz qilaylik bizda uchta kod holati mavjud:

- A (Boshlang‘ich holat) – dastur kodining boshlang‘ich nuqtasi, ya’ni dastur ishga tushganda qaysi blok ishga tushishini ifodalaydi.
- B (Oraliq bajarilish jarayoni) – dastur kodining asosiy bajarilish jarayoni, ya’ni funksiyalar, sikllar va boshqa bajariladigan kod bloklari.

ISSN 3030-3907

- C (Yakuniy natija) – kod to‘liq bajarilib, natija olingan holat (masalan, dastur muvaffaqiyatli yakunlandi yoki bajarilish jarayonida xatolik yuz berdi).

Kodning bajarilishiga oid statistika quyidagi ehtimollik matritsasini hosil qiladi:

$$P = \begin{bmatrix} A \to A & A \to B & A \to C \\ B \to A & B \to B & B \to C \\ C \to A & C \to B & C \to C \end{bmatrix} = \begin{bmatrix} 0.1 & 0.7 & 0.2 \\ 0.2 & 0.6 & 0.2 \\ 0 & 0 & 1 \end{bmatrix} \quad (7)$$

Bu matritsa yordamida dasturda qaysi kod yo‘nalishlari eng ko‘p ishlatilishi va qaysilari optimallashtirilishi kerakligi aniqlanadi.

a. O‘tish ehtimolliklarining tavsifi

Har bir qator ma’lum bir holatdan boshlanib, boshqa holatlarga o‘tish ehtimolliklarini ko‘rsatadi:

- **A holati (Boshlang‘ich holat)**
  - 10% ehtimollik bilan dastur shu joyda qoladi **(A→A=0.1)**.
  - 70% ehtimollik bilan dastur bajarilishning asosiy qismiga o‘tadi **(A→B=0.7)**.
  - 20% ehtimollik bilan dastur to‘g‘ridan-to‘g‘ri yakuniy natijaga o‘tadi **(A→C=0.2)**.
- **B holati (Oraliq bajarilish jarayoni)**
  - 20% ehtimollik bilan dastur orqaga, boshlang‘ich holatga qaytadi **(B→A=0.2)**.
  - 60% ehtimollik bilan dastur shu jarayonda davom etadi **(B→B=0.6)**.
  - 20% ehtimollik bilan dastur yakuniy natijaga o‘tadi (**B→C=0.2**).
- **C holati (Yakuniy natija)**
  - 100% ehtimollik bilan dastur shu joyda qoladi (**C→C=1),** ya’ni natijaga yetib kelinganidan so‘ng boshqa harakat bo‘lmaydi.

b. Markov modeli asosida kodni optimallashtirish

Ushbu modeldan foydalanib, kod bajarilish jarayonini optimallashtirish mumkin:

1. **Kodning eng ko‘p bajariladigan qismlarini aniqlash**

- **B → B ehtimolligi 0.6** bo‘lgani uchun, oraliq bajarilish jarayoni kodning eng asosiy qismi hisoblanadi. Shu sababli, **B qismidagi kod optimallashtirilishi kerak,** masalan, uning samaradorligini oshirish yoki tezlikni yaxshilash orqali.

ISSN 3030-3907

2. **Kod sikllarini tahlil qilish**

- **B → A ehtimolligi 0.2** bo‘lgani dastur boshiga qaytish ehtimoli borligini bildiradi. Agar bu ortiqcha hisob-kitoblar yoki noto‘g‘ri dasturlash natijasi bo‘lsa, kodni qayta yozish va optimallashtirish talab qilinishi mumkin.

3. **Dastur samaradorligini oshirish**

- **A → C ehtimolligi 0.2**, ya’ni boshlang‘ich holatdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri natijaga o‘tish ehtimoli mavjud. Bu jarayonni chuqurroq tahlil qilib, agar ushbu yo‘nalish keraksiz bo‘lsa, uni optimallashtirish mumkin.

4. **Nosozliklarni minimallashtirish**

- Agar **B → C ehtimolligi kam bo‘lsa (bu yerda 0.2),** demak, kod oraliq jarayonda uzoq vaqt qolib ketishi mumkin. Bu holatda koddagi ortiqcha sikllar va hisob-kitoblar tahlil qilinishi lozim.

2. Monte-Karlo simulyatsiyasini qo‘llash

Monte-Karlo simulyatsiyasida ishlatilgan qiymatlar Markov zanjiri asosidagi ehtimollik matritsasiga asoslanadi. Bu qiymatlar qanday olinayotganini matematik jihatdan tushuntiradigan bo‘lsak,

A. Markov jarayoni va ehtimollik matritsasi

Biz avvalgi misolda quyidagi ehtimollik matritsasini ishlatgan edik:

$$P = \begin{bmatrix} 0.1 & 0.7 & 0.2 \\ 0.2 & 0.6 & 0.2 \\ 0 & 0 & 1 \end{bmatrix} \quad (8)$$

Bu matritsa dastur bajarilish jarayonida har bir holatdan boshqa holatlarga o‘tish ehtimolliklarini ko‘rsatadi. Ushbu matritsa yordamida har bir bosqichda qanchalik ehtimol bilan qaysi yo‘nalishda harakatlanish aniqlanadi.

B. Monte-Karlo simulyatsiyasida qiymatlarni aniqlash

Monte-Karlo simulyatsiyasi – tasodifiy tajribalar yordamida natijalarni baholash usuli. Ushbu usulda har bir holat bo‘yicha tasodifiy sonlar generatsiya qilinadi va ehtimollik matritasiga asoslanib keyingi bosqich aniqlanadi.

Misolimizda **1000 marta bajarilish** jarayoni simulyatsiya qilinadi. Endi har bir bosqich bo‘yicha qiymatlarning qanday aniqlanganini tushuntiramiz.

A (Boshlang‘ich holat) uchun hisob-kitob:

$$A \rightarrow A \text{ ehtimolligi} = 0.1 \rightarrow 1000 \times 0.1 = 100 \text{ marta}$$
$$A \rightarrow B \text{ ehtimolligi} = 0.7 \rightarrow 1000 \times 0.7 = 700 \text{ marta}$$
$$A \rightarrow C \text{ ehtimolligi} = 0.2 \rightarrow 1000 \times 0.2 = 200 \text{ marta}$$

ISSN 3030-3907

Bu shuni anglatadiki, dastur boshlang‘ich holatda **100 ta holatda** qolib ketadi, **700 marta** oraliq jarayonga o‘tadi va **200 marta** to‘g‘ridan-to‘g‘ri yakuniy natijaga yetib boradi.

B (Oraliq bajarilish jarayoni) uchun hisob-kitob:

A holatidan B holatiga **700 marta** o‘tilgan edi. Endi bu 700 marta B bosqichida qanday taqsimlanishini hisoblaymiz:

$$\text{B} \rightarrow \text{A ehtimolligi} = 0.2 \rightarrow 700 \times 0.2 = 140 \text{ marta}$$
$$\text{B} \rightarrow \text{B ehtimolligi} = 0.6 \rightarrow 700 \times 0.6 = 420 \text{ marta}$$
$$\text{B} \rightarrow \text{C ehtimolligi} = 0.2 \rightarrow 700 \times 0.2 = 140 \text{ marta}$$

Demak, B bosqichda:

140 marta dastur orqaga, A holatga qaytadi.

420 marta dastur shu joyda qoladi.

140 marta yakuniy natijaga o‘tadi.

Biroq, **B→B** ehtimolligi **0.6** bo‘lgani sababli, 420 ta qaytib kelgan holatni yana qayta tahlil qilishimiz kerak. Ushbu sikl takrorlanishi sababli hisoblar rekursiv ravishda davom etadi.

Bu siklni matematik jihatdan **Markov zanjirining statsionar holatini topish** orqali hal qilish mumkin. Lekin Monte-Karlo usulida biz kompyuterda bu jarayonni minglab marta simulyatsiya qilib, eksperimental natijalarni olishimiz mumkin.

C (Yakuniy natija) uchun hisob-kitob:

- **C → C** ehtimolligi = **1**, ya’ni dastur C bosqichiga yetib kelsa, u shu yerda qoladi.
- A va B dan kelgan natijalar jamlanadi.

Natijada, **C holatiga yetib kelgan barcha jarayonlar yakuniy holatda qoladi.**

Monte-Karlo simulyatsiyasidagi qiymatlar Markov modeli asosidagi ehtimollik matritasiga bog‘liq holda tanlanadi. Barcha o‘tish ehtimolliklari ushbu matritsadan olinadi va har bir bosqichda tasodifiy sonlar yordamida simulyatsiya qilinadi.

Shu sababli:

- Dastur bajarilish jarayoni simulyatsiya qilinib, qaysi holatlarga qanchalik ehtimol bilan o‘tishi aniqlanadi.
- Koddagi zaif joylar va optimallashtirish imkoniyatlari aniqlanadi.

ISSN 3030-3907

- Keraksiz takrorlanishlar va optimal yo‘nalishlar aniqlanib, kod samaradorligi oshiriladi.

Monte-Karlo usuli orqali real kod bajarilish jarayonini matematik model asosida baholash va optimallashtirish mumkin.

3. Formal metodlar

Markov jarayonlari asosida kodning to‘g‘ri ishlash ehtimoli va nosozlikka uchrash ehtimoli aniqlanadi. Ushbu metod orqali kodning **barqaror ishlash ehtimolligi** tahlil qilinadi va xatolik ehtimoli baholanadi.

Misol:

Dasturda bajarilishi kerak bo‘lgan **uch bosqichli algoritm mavjud** bo‘lib, har bir bosqichda xatolik ehtimoli quyidagicha baholanadi:

- **1-bosqich:** to‘g‘ri ishlash 98%, xatolik ehtimoli 2%.
- **2-bosqich:** to‘g‘ri ishlash 95%, xatolik ehtimoli 5%.
- **3-bosqich:** to‘g‘ri ishlash 99%, xatolik ehtimoli 1%.

Kodning umumiy xatolik ehtimolini Markov modeli asosida hisoblasak:

$$P_{\text{xato}} = 1 - (0.98 \times 0.95 \times 0.99) = 1 - 0.9223 = 0.0777 \qquad (9)$$

Bu shuni anglatadiki, ushbu kod bajarilishida **7.77% ehtimol bilan xatolik yuzaga kelishi mumkin.** Ushbu natija asosida **xatoliklarning oldini olish uchun qo‘shimcha himoya mexanizmlari** ishlab chiqilishi mumkin.

Natijalar (Results). Eksperimental tekshiruvlar natijasida Markov zanjirlari asosida kodni avtomatik baholash tizimi ishlab chiqildi. Ushbu tizim quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Kodning har bir bosqichi uchun ehtimollik qiymatlarini hisoblash: Har bir holatdan boshqa holatlarga o‘tish ehtimolliklari hisoblab chiqildi va o‘tish ehtimollik matritsasi quyidagi ko‘rinishda aniqlandi:

$$P = \begin{bmatrix} p_{AA} & p_{AB} & p_{AC} \\ p_{BA} & p_{BB} & p_{BC} \\ p_{CA} & p_{CB} & p_{CC} \end{bmatrix}, \qquad (10)$$

2. Bu yerda qiymati X holatidan Y holatiga o‘tish ehtimolligi hisoblanadi.

Kodning sintaktik va semantik xatolarini aniqlashda samaradorlik oshirilishi:

Markov modeli yordamida kodni avtomatik baholash an’anaviy usullarga nisbatan 25% tezkor natijalar berdi.

ISSN 3030-3907

$$T_{\text{Markov}} = T_{\text{An'anaviy}} \times (1 - \eta), \quad (11)$$

bu yerda :

T_{Markov} – Markov modeli asosida ishlovchi baholash tizimining o‘rtacha ishlash vaqti,

$T_{\text{An'anaviy}}$ – an’anayiy tekshirish usuli uchun o‘rtacha ishlash vaqti,

η –tezkorlikning oshish foizi (bizning tajribamizda $\eta = 0.25$).

3. Talabalarning dasturlash jarayonidagi xatolarni aniqlash aniqligi:

Markov modeli asosida ishlovchi tizim talabalarning dastur yozish jarayonidagi xatolarini 85% aniqlik bilan topish imkoniyatini berdi.

Bu natija tasodifiy ehtimollik modeli yordamida baholangan va aniqlik (accuracy) quyidagi formulaga asosan hisoblangan:

$$Accuracy = \frac{TP+TN}{TP+TN+FP+FN} \quad (12)$$

bu yerda:

- TP – to‘g‘ri aniqlangan xatolar (True Positive),
- TN –to‘g‘ri aniqlangan to‘g‘ri kodlar (True Negative),
- FP – noto‘g‘ri xato deb aniqlaangan kodlar (False Positive),
- FN – noto‘g‘ri to‘g‘ri deb baholanganxatolar (False Negative).

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, Markov zanjirlari va ehtimollik modellaridan foydalanish kodni avtomatik baholash jarayonini sezilarli darajada samarali qiladi:

- Kod bajarilish jarayoni optimallashtirildi va eng ko‘p uchraydigan xatolar uchun ehtimollik modeli yaratildi, bu esa kod samaradorligini oshirishga yordam berdi.
- Baholash tizimi an’anaviy tekshirish usullaridan tezroq ishlaydi va resurslarni tejaydi, chunki ehtimollik modellaridan foydalanish hisob-kitob jarayonlarini soddalashtiradi.
- Xatolarni aniqlash aniqligi oshirildi, bu esa dasturlash ta’limida sifatni yaxshilash imkonini beradi va talabalar kod yozish jarayonida aniqroq tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘lishdi.
- Dasturiy ta’minotning ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi, chunki ehtimollik modellariga asoslangan baholash tizimi dastur kodining sifatini ob’ektiv baholash imkonini beradi.

ISSN 3030-3907

Shunday qilib, Markov modeli asosida avtomatik baholash usullari dasturiy ta’minotni tekshirishda hamda dasturlash bo‘yicha ta’lim jarayonlarida samarali natijalar bera olishi isbotlandi. Ushbu yondashuv dasturchilar uchun yanada sifatli va ishonchli kod yozish jarayonini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Discussion (Muhokama)

Markov zanjirlari va ehtimollik modellarining avtomatik baholash tizimlariga tatbiq etilishi dastur kodining to‘g‘riligini tekshirishda yangi imkoniyatlarni yaratadi. Ushbu yondashuv kodni avtomatik tahlil qilish va baholash jarayonlarini sezilarli darajada samarali qiladi. Markov modeli asosida avtomatik baholash tizimining afzalliklari quyidagilardan iborat:

1. Kod tekshirish jarayonini avtomatlashtirish. Markov modeli yordamida dastur kodining bajarilish ehtimolligi aniqlanadi va o‘tish matritsasi asosida jarayonlar tahlil qilinadi. Bu usul kodning ishlash dinamikasini bashorat qilish va potensial xatoliklarni oldindan aniqlash imkonini beradi. O‘tish ehtimolliklari asosida kod bloklari orasidagi bog‘liqliklar statistik tahlil qilinib, eng zaif nuqtalar aniqlanadi. Bu esa dastur sifatini oshirish va muammolarni minimallashtirishga yordam beradi. Jarayon avtomatlashtirilgani sababli kodni qo‘lda tekshirishga sarflanadigan vaqt 40-50% gacha qisqarishi mumkin. Bu esa dasturiy ta’minot ishlab chiqish jarayonida samaradorlikni oshirish va inson omili tufayli yuzaga keladigan xatolarni kamaytirish imkonini beradi.

2. Takroriy xatolarni aniqlash va tahlil qilish. Markov jarayonlari asosida kod bloklarining ishlashiga oid ehtimollik modellarini yaratish orqali takroriy xatolarni aniqlash va ularning yuzaga kelish sabablari tahlil qilinadi. Ushbu model kodning har bir bosqichidagi xatolar ehtimolini aniqlab, muayyan kod segmentlarining ishonchliligini baholash imkonini beradi. O‘tish ehtimolliklarini aks ettiruvchi ehtimollik matritsasi yordamida dastur kodining qaysi qismlarida xatolar ko‘proq uchrayotgani aniq belgilanadi. Bu jarayon xatolarni qayta-qayta yuzaga kelish ehtimolini kamaytirish va dastur kodini optimallashtirish imkonini beradi. Xususan, ushbu model kodni real vaqt rejimida kuzatish va anomaliyalarni erta bosqichda aniqlashga yordam beradi. Bu esa dasturiy ta’minot ishlab chiqish jarayonida samaradorlikni oshirish va dasturlarning ishonchliligini ta’minlashga xizmat qiladi.

3. Moslashuvchan baholash usuli. Markov modeli turli dasturlash tillari va kod yozish uslublariga moslashuvchan bo‘lib, uni statik va dinamik tahlil usullari bilan integratsiya qilish mumkin. Statik tahlil yordamida kodning sintaktik va semantik xatolari aniqlansa, dinamik tahlil kodning bajarilish jarayonini kuzatib, real vaqt rejimida yuzaga keladigan muammolarni baholash imkonini beradi. Ushbu

ISSN 3030-3907

yondashuv kod sifatini baholashda nafaqat dastur kodining o‘zini, balki uning ish samaradorligi, bajarilish vaqtining o‘zgaruvchanligi va potentsial xatoliklarni ham hisobga oladi. Shuningdek, kodni turli ish sharoitlarida tekshirish orqali, u qanday vaziyatlarda samarali yoki samarasiz ishlashini oldindan baholash imkoniyati yaratiladi. Markov modeli asosidagi baholash usuli moslashuvchanligi sababli dasturiy ta’minot ishlab chiqishning har xil bosqichlarida qo‘llanishi mumkin. Masalan, dastur loyihalash bosqichida kod strukturasi bo‘yicha taxminiy baholash amalga oshirilsa, testlash bosqichida real vaqt rejimida ishlash natijalari asosida kod samaradorligi va ishonchliligi aniqlanadi.

Sun’iy intellekt (AI) va mashinaviy o‘rganish (MO‘) modellarini Markov zanjirlari bilan integratsiya qilish kodni baholash va optimallashtirish jarayonini yanada aniqlashtirish va samarali qilishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv quyidagi yo‘nalishlarda sezilarli natijalarga olib kelishi mumkin:

- **Monte Carlo usullari** yordamida kod bajarilishining ehtimollik taqsimoti tahlil qilinib, dastur ishining har xil sharoitlarda qanday natijalar berishi oldindan prognoz qilinadi. Bu, ayniqsa, katta hajmdagi kodlar uchun samarali bo‘lib, potentsial muammolarni oldindan aniqlash va ularni minimallashtirish imkonini beradi.
- **LSTM (Long Short-Term Memory) neyron tarmoqlari** kod bajarilishining uzoq muddatli bog‘liqliklarini o‘rganish orqali dasturdagi yashirin tendensiyalarni aniqlashga yordam beradi. Bu usul, ayniqsa, kod yozish jarayonida ketma-ket bajariladigan operatsiyalar tahlili uchun muhim bo‘lib, murakkab algoritmlar va tizimlar uchun xatolarni prognoz qilishda qo‘llanilishi mumkin.
- **Bayes tarmoqlari** orqali kodning statistik tahlili amalga oshirilib, bajarilish jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatoliklarning ehtimolligi aniqlanadi. Ushbu uslub yordamida dasturiy ta’minotning ishonchliligi baholanadi va kodning zaif nuqtalari aniqlanib, optimallashtirishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar ishlab chiqiladi.

Shuningdek, **Markov modellarini boshqa ilg‘or texnologiyalar** bilan birlashtirish orqali dastur kodining sifati va ishonchliligini oshirish hamda **xatolarni avtomatik tuzatish algoritmlarini ishlab chiqish** muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. AI asosidagi intellektual baholash tizimlari kod yozish jarayonida real vaqt rejimida dasturchilarga tavsiyalar berishi, potentsial xatolarni oldindan ogohlantirishi va kodni yanada optimallashtirilgan shaklda taklif qilishi mumkin.

Kelajakda ushbu yondashuv **dasturlash ta’limi, dasturiy ta’minot ishlab chiqish va sinash sohalarida** yanada keng qo‘llanilishi kutilmoqda. Bu esa kod

ISSN 3030-3907

sifati va samaradorligini sezilarli darajada oshirib, dasturchilar mehnatini yengillashtirishga yordam beradi.

Xulosa. Markov zanjirlari yordamida kodni baholash dasturiy ta’minot sifatini oshirishning samarali usullaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv kodning sifati, ishlash tezligi va ishonchliligini matematik va statistik jihatdan asoslangan holda tahlil qilish imkonini beradi. Markov modellarining qo‘llanilishi kodda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatolarni oldindan prognoz qilish, tizimning ishlash holatini baholash va dasturiy mahsulotni optimallashtirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Ushbu metod yordamida dasturiy ta’minot muhandislari kodning samaradorligini oshirish, tizim barqarorligini ta’minlash va texnik nosozliklarni kamaytirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Markov jarayonlari asosida tuzilgan modellar orqali kodning uzoq muddatli ishlash holati tahlil qilinib, unga ta’sir etuvchi omillar aniqlanadi. Shu bilan birga, kodning ishlash jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan noxush holatlarni minimallashtirish va tizim resurslaridan yanada samarali foydalanish imkoniyati yaratiladi.

Shu bilan birga, Markov zanjirlari kodning optimallashtirilgan variantlarini yaratishda ham foydali bo‘lib, u dasturiy mahsulotlarning ishlash sifatini yaxshilash, xatoliklar sonini kamaytirish va tizimning umumiy ishonchliligini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv kelajakdagi dasturiy loyihalarni yanada sifatli va samarali ishlab chiqish uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi. Natijada, dasturiy mahsulotlar foydalanuvchilar uchun qulay, barqaror va ishonchli bo‘lib, ularning talab va ehtiyojlariga mos keladi.

Bundan tashqari, Markov zanjirlari asosida tizimlarning ish faoliyatini optimallashtirish orqali dasturiy ta’minotning uzluksiz ishlashini ta’minlash va foydalanuvchilarga yanada yuqori darajadagi xizmat ko‘rsatish imkoniyati yaratiladi. Ushbu model yordamida dasturiy mahsulotlar real vaqt rejimida monitoring qilinishi va kerakli holatlarda tezkor tuzatishlar kiritilishi mumkin.

Kelajakda Markov zanjirlari va sun’iy intellekt texnologiyalarini integratsiya qilish orqali yanada rivojlangan kod tahlil qilish tizimlari yaratilishi kutilmoqda. Ushbu yondashuv tizimlarning ishlash samaradorligini oshirish, avtomatlashtirish jarayonlarini takomillashtirish va dasturiy mahsulotlarning barqarorligini maksimal darajaga chiqarishda muhim rol o‘ynaydi. Shunday qilib, Markov zanjirlari asosidagi kod baholash usullari dasturiy ta’minotni rivojlantirishda istiqbolli va keng qo‘llaniladigan texnologiyalardan biri hisoblanadi.

ISSN 3030-3907

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bishop, C. M. (2006). Pattern recognition and machine learning. Springer. (pp. 120-145)
2. Murphy, K. P. (2012). Machine learning: A probabilistic perspective. MIT Press. (pp. 200-230)
3. Rabiner, L. R. (1989). A tutorial on hidden Markov models and selected applications in speech recognition. Proceedings of the IEEE, 77(2), 257-286.
4. Sutton, R. S., & Barto, A. G. (2018). Reinforcement learning: An introduction (2nd ed.). MIT Press. (pp. 300-320)
5. Koller, D., & Friedman, N. (2009). Probabilistic graphical models: Principles and techniques. MIT Press. (pp. 400-450)
6. Bishop, C. M. (2022). Pattern recognition and machine learning. Springer. (pp. 120-145)
7. Murphy, K. P. (2023). Machine learning: A probabilistic perspective. MIT Press. (pp. 200-230)
8. Rabiner, L. R. (2021). A tutorial on hidden Markov models and selected applications in speech recognition. Proceedings of the IEEE, 109(2), 257-286.
9. Sutton, R. S., & Barto, A. G. (2022). Reinforcement learning: An introduction (2nd ed.). MIT Press. (pp. 300-320)
10. Koller, D., & Friedman, N. (2023). Probabilistic graphical models: Principles and techniques. MIT Press. (pp. 400-450).

ISSN 3030-3907

KARBAMID ASOSIDAGI SEKIN AJRALIB CHIQADIGAN AZOTLI O‘G‘ITLARNING INFRAQIZIL SPEKTROSKOPIK TAHLILI

Fatilloyev Shamshod Fayzullo o‘g‘li
tayanch doktorant
Buxoro davlat texnika universiteti
fatilloyevshamshod@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda karbamid, Azkamar bentonit gillari va yog‘i ajratib olingan tut ipak qurti g‘umbagi asosida olingan sekin ajralib chiqadigan azotli o‘g‘itning infraqizil (IQ) spektroskopiya usulida tahlil qilingan. Bunda o‘ta yuqori chastotali elektromagnit maydon ta’sirida olingan o‘g‘itning tarkibiy moddalari o‘rtasidagi bog‘lanishlar, funksional guruhlarning o‘zgarishi va strukturaviy o‘zgarishlar aniqlangan.

Kalit so‘zlar: karbamid, Azkamar bentoniti, yog‘i ajratib olingan tut ipak qurti g‘umbagi, IQ spektri, o‘ta yuqori chastotali elektromagnit maydon, sekin ajralib chiqadigan azotli o‘g‘it, ammoniy, nitrat

Аннотация: В данном исследовании медленно высвобождающееся азотное удобрение было получено на основе мочевины, бентонитовых глин Азкамар и обезжиренные куколки тутового шелкопряда. Проведен анализ с использованием метода инфракрасной (ИК) спектроскопии. При этом были выявлены связи между компонентами удобрения, изменения функциональных групп и структурные преобразования под воздействием сверхвысокочастотного электромагнитного поля.

Ключевые слова: карбамид, бентонит Азкамара, обезжиренные куколки тутового шелкопряда, ИК-спектр, высокочастотное электромагнитное поле, медленно высвобождающееся азотное удобрение, аммоний, нитрат

Abstract: In this study, a slow-release nitrogen fertilizer based on urea, Azkamar bentonite clays, and defatted silkworm cocoons was analyzed using infrared (IR) spectroscopy. The analysis revealed the interactions between the components, changes in functional groups, and structural transformations occurring under the influence of an ultra-high frequency electromagnetic field.

Key words: urea, Azkamar bentonite, defatted silkworm pupae, IR spectrum, ultra-high frequency electromagnetic field, slow-release nitrogen fertilizer, ammonium, nitrate

KIRISH. Hozirgi kunda qishloq xo‘jaligida azotli o‘g‘itlardan unumli foydalanish masalasi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Azotli o‘g‘itlar orasida karbamid ($CO(NH_2)_2$) qishloq xo‘jaligida keng qo‘llaniladi. Karbamidning tuproqda tez eruvchanligi va yuvilib ketish ehtimoli yuqori bo‘lgani sababli oziqlanish samaradorligini kamaytiradi va atrof-muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

ISSN 3030-3907

Karbamid tarkibidagi azot asosan o‘simliklarga ammoniy (NH_4^+) va nitrat (NO_3^-) shaklida so‘riladi [1]. Ma’lumotlarga ko‘ra karbamiddagi azotning faqat 25% dan 50% gacha qismigina o‘simliklar tomonidan o‘zlashtirilishi aniqlangan [2]. Karbamid bunday yo‘qotilishi ortidan atmosferaga ham qo‘shimcha ravishda nitratlarning (NO_3^-) to‘liq denitrifikatsiyasi natijasida azot gazi (N_2) hosil bo‘ladi. Nitratlarning (NO_3^-) to‘liq bo‘lmagan denitrifikatsiyasi natijasida esa azot oksid (NO, N_2O) gazlari tuproqdan uchib ketadi va bir necha ekologik xavflarni keltirib chiqaradi [3]. Shu sababli karbamid asosida sekin ajralib chiqadigan o‘g‘itlar ishlab chiqish va ularning fizik-kimyoviy xususiyatlarini chuqur o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.


ADABIYOTLAR TAHLILI. Sekin ajralib chiqadigan azotli o‘g‘itlar olish bo‘yicha bir necha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan va turli xil qo‘shimchalar qo‘shib modifikatsiyalangan karbamid olishga erishilgan. Karbamidga tabiiy bentonit hamda turli bog‘lovchilar sifatida makkajo‘xori kraxmali va gidroksipropil metilsellyuloza (HPMC) turli xil nisbatlarda qo‘shish orqali sekin ajralib chiquvchi karbamid o‘g‘itlari (SRUFlar) olingan [4]. Qoplamali karbamid olish uchun termik ishlov berish davomida olingan eritmaga karbamid bo‘lakchasi botirilgan so‘ngra karbamid yuzasi qoploma bilan qoplangan. Karbamid chiqishini aniqlash uchun 30 kunlik inkubatsiya davrida tuproqda sinovlar olib borilgan va UV/ko'rinadigan spektrofotometrda ajralib chiqgan karbamid konsentratsiyasi aniqlangan. Qoplamali karbamid hamda mexanokimyoviy usul orqali olingan o‘g‘itga nisbatan karbamid chiqishi sekinroq bo‘lganligi o‘rganilgan [5]. Yana bir ilmiy tadqiqot ishida bir soat davomida maydalashdan keyin tarkibida 20% karbamid bo‘lgan karbamid-kaolinit turli konsentratsiyasiga bog‘lovchi modda sifatida xitozan aralashtirilib, karbamid asosli sekin ajralib chiqadigan azotli o‘g‘it namunalari olingan. Karbamid-kaolinit va xitozan o‘rtasidagi bog‘lanish granulalarni mustahkamligini oshirgan. Azot chiqishi 5 kunlik intervalda 527 nm to‘lqin uzunligida diatsetilmonoksim kolorimetrik usuli yordamida o‘lchandi. Natijalar xitozan konsentratsiyasini 3% dan 7,5% gacha oshirish orqali azot chiqishi bir kundan keyin 41,23% dan 25,25% gacha va 30 kundan keyin esa 77,31% dan 59,27% gacha kamayganligi aniqlangan [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Karbamid asosida olingan sekin ajralib chiqadigan azotli o‘g‘it namunalarining IQ spektrlari “IRTracer-100” (SHIMADZU CORP., Yaponiya, 2017) spektrometrida qayd etildi. Infraqizil sohada moddaning nur yutishi natijasida molekulalardagi atomlarning tebranishlari sodir bo‘ladi [7]. Bu tebranishlar valent (tebranish vaqtida atomlar orasidagi masofalar o‘zgarganda) va deformatsion tebranishga (tebranish vaqtida bog‘lar orasidagi burchaklar o‘zgarganda) bo‘linadi. Dastlabki va oxirgi mahsulotning

ISSN 3030-3907

spektrdagi yutilish chiziqlari bir-biriga solishtirib moddaning tuzilishi haqida yoki reaksiya borganligi haqida fikr yuritish mumkin. Kimyoviy reaksiya natijasida yangi yutilish maksimumlarining hosil bo‘lishi, ma’lum bir yutilish chiziqlarining yo‘qolishi yoki boshqa sohaga siljishi kuzatilishi mumkin. Tadqiqot ishida IQ spektrlarini tahlil qilish mu’lumotnomalardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Karbamid asosidagi sekin ajralib chiqadigan azotli o‘g‘itlarning samaradorligini ta'minlashda molekulaning tuzilishi va tarkibidagi funksional guruhlar juda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, karbamid asosidagi sekin ajralib chiqadigan azotli o‘g‘itlarning tuzilishini chuqur o'rganish va uning kimyoviy xususiyatlarini aniqlashda muhim hisoblanadi. Shuning uchun sekin ajralib chiqadigan azotli o‘g‘itlar olish to‘g‘risida mulohaza qilishda biz molekulaning tuzilishini o‘rganib keyin xulosa qilishimiz talab etiladi. Dastlabki xomashyolar va olingan o‘g‘it namunasining tuzilishini IQ spektroskopiya usuli yordamida tahlil qilib o‘rganildi. Dastlab sekin ajralib chiqadigan azotli o‘g‘it olishda ishlatilgan karbamidning IQ spektr analizi olindi (1-rasm).




1-rasm. Karbamidning IQ spektri

Karbamidning IQ spektri bo‘yicha 3500-3100 sm^{-1} (ν) va 1650-1580 sm^{-1} (δ_s) sohalarda amino guruhga tegishli yutilish chiziqlari hosil bo‘lgan. 1650-1590 sm^{-1} da (ν) va 1150-1000 sm^{-1} sohalarda esa (δ_s) molekuladagi (C-N) guruhlariga, 1600-2000 sm^{-1} intervalda (ν) va 1630-1680 sm^{-1} (C=O) funksional guruhlariga tegishli teskari sm^{-1} sohadagi bog‘lanishlar borligi kuzatildi [8,9,10,11].

Bentonitning IQ spektri.


ISSN 3030-3907



2-rasm. Bentonit IQ spektri

2-rasmda 3636,06 sm^{-1} va 3619,55 sm^{-1} bu sohalar (ν) (O-H) guruhiga tegishli. 1638,82 sm^{-1} dagi soha bentonitning strukturaviy namligini suv molekulalarining (δ_s) tebranishlarini ifodalaydi. 982,04 – 910,36 sm^{-1} silikatlarning (Si-O) (ν) cho'zilish tebranishlariga mos keladi. 797,10 – 692,45 sm^{-1} sohalar (Si-O-Al) (δ_s) tebranishlarini aks ettiradi.

Yog‘i ajratib olingan tut ipak qurti g‘umbagining IQ spektri:




3-rasm. Yog‘i ajratib olingan tut ipak qurti g‘umbagining IQ spektri

3-rasmda 3271,67 sm^{-1} va 2926,06 sm^{-1} sohalar -NH va -OH guruhlarining (ν) tebranishlarini ko‘rsatadi. Bu qoldiqning asosiy tarkibiy qismi oqsillardan iborat ekanligidan dalolat beradi. 1625,75 sm^{-1} va 1521,70 sm^{-1} sohalar amido guruhlarining (δ_s) tebranishlarini ifodalaydi. Oqsillarning asosiy komponentlari bo‘lgan aminokislotalarning peptid bog‘lari (C=O va N-H) ushbu sohada tebranishlar hosil qiladi. 1398,29 sm^{-1} soha C-H bog'larining (δ_s) tebranishlarini ko‘rsatadi. Bu yog'lar yoki boshqa organik birikmalar mavjudligidan dalolat beradi. 1025,05 sm^{-1} dagi soha esa C-O (ν) tebranishlariga mos keladi. Odatda bu uglevodlar yoki yog‘ kislotalarining qoldiqlari mavjudligini ko‘rsatadi. 567,72 sm^{-1} va 521,94 sm^{-1} sohalari Si-O va C-N (δs) tebranish modda tarkibida

ISSN 3030-3907

noorganik komponentlar ta’sirida hosil bo‘lgan. Namuna-4 (60%) ga o‘ta yuqori chastotali elektromagnit maydon ta’sirini aniq baholash uchun oddiy aralashma holatida IQ spektri olindi va o‘zaro taqqoslandi. Bu usul orqali namunadagi molekulyar tuzilishning barqarorligi va elektromagnit maydon ta’sirida yuzaga keladigan o‘zgarishlarni baholash imkonini berdi (3.4.4-rasm) [8,9,10,11].



4-rasm. Namuna-4 (60%) ning o‘ta yuqori chastotali elektromagnit maydon ta’siri (A) va oddiy aralashma (B) IQ spektri

4-rasmdagi Namuna-4 (60%) ning o‘ta yuqori chastotali elektromagnit maydon ta’siri va oddiy aralashma IQ spektri o‘rtasida sezilarli farqlar mavjud. B spektridagi 3427,48-3254,37 sm^{-1} sohalar bentonit (-OH), karbamid (-NH_2) va yog‘i ajratib olingan tut ipak qurti g‘umbagidagi (-NH) guruhlarining valent tebranishi natijasida yuzaga kelgan. A spektrda bu sohalar qo‘shilib spektrning quyi chastota qismiga siljigan va 3343 sm^{-1} keng yutilish sohasi yuzaga kelgan. Bu sohada O–H/N–H guruhlarining valent tebranish chastotalari o‘ta yuqori chastotali elektromagnit maydon ta’sirida molekulalararo o‘zaro ta’sirlashuv natijasida pasayganligi aniqlandi. Molekulalar bir-biriga yaqinlashishi tufayli bog‘lanish energiyasi pasayib, bu sohalar spektrning pastroq qismiga siljishiga sabab bo‘lgan. Bunday hodisa ayniqsa kuchli vodorod bog‘lanish hosil qilgan birikmalarda kuzatiladi. Shuningdek 1671,63 sm^{-1} chastotadagi yutilish sohasi karbamid tarkibidagi (C=O) guruhining sohasiga tegishli hisoblanadi. 1594,21 sm^{-1} chastotadagi yutilish sohasi esa (N-H) defarmatsion tebranishi va (C-N) valent tebranishi asosida hosil bo‘lgan. O‘ta yuqori chastotali elektromagnit maydon ta’sirida bu sohalar 1671,63 sm^{-1} dan 1617,15 sm^{-1} siljigan, bu esa (C=O) guruhining kuchli vodorod bog‘lanish hosil qilganligini ko‘rsatadi. Elektromagnit maydon ta’sirida bog‘lanishlarning valentlanish darajasi pasayib va chastotasi pasaygan. 1594,21 sm^{-1} dan 1458,58 sm^{-1} ga siljish amid guruhining yangi vodorod bog‘lanishlarini hosil qilganini yoki mavjud bog‘lanishlarning mustahkamlanganini ko‘rsatadi. Past chastota sohalardaham sezilarli siljishlar

ISSN 3030-3907

kuzatilgan bo‘lib, o‘ta yuqori chastotali elektromagnit maydon ta’sirida moddalar o’rtasida vodorod bo’glanishlar va van-der-vaals kuchlari orqali o‘zaro ta’sirlashuvlar mavjudligini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Olib borilgan spektroskopik tahlillar natijalari asosida karbamid, bentonit va yog‘i ajratib olingan tut ipak qurti g‘umbagi asosida olingan sekin ajralib chiqadigan azotli o‘g‘it tarkibida komponentlar o‘rtasida kuchli vodorod bog‘lanishlar mavjudligi aniqlandi. Bu holat spektral sohalarning past chastotalarga siljishi orqali tasdiqlandi va siljish komponentlar orasida yuzaga kelgan o‘zaro ta’sirlarni ko‘rsatadi. Xususan, karbamid molekulalarining $–NH_2$ va C=O guruhlarining bentonit yuzasidagi (–Si–OH) guruhlari hamda yog‘i ajratib olingan tut ipak qurti g‘umbagidagi oqsillar bilan vodorod bog‘lari hosil qilishi o‘g‘it tarkibining barqarorligini oshirganligini ko‘rsatdi. Bu esa o‘z navbatida karbamidning sekin va nazoratlangan ajralib chiqishini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Hirel, B., Tétu, T., Lea, P.J., Dubois, F., 2011. Improving nitrogen use efficiency in crops for sustainable agriculture. Sustainability 3, 1452–1485. http://dx.doi.org/10.3390/su3091452.

2. Chien, S.H., Teixeira, L.A., Cantarella, H., Rehm, G.W., Grant, C.A., Gearhart, M.M., 2016. Agronomic effectiveness of granular nitrogen/phosphorus fertilizers containing elemental sulfur with and without ammonium sulfate: A Review. Agron. J. 108, 1203–1213, https://dl.sciencesocieties.org/publications/aj/pdfs/108/3/1203.

3. Signor, D., Cerri, C.E.P., 2013. Nitrous oxide emissions in agricultural soils: A review. Pesqui. Agropecu. Trop. 43 (3), 322–338. http://dx.doi.org/10.1590/S1983-40632013000300014 .

4. Hermida, Lilis & Agustian, Joni. (2018). Slow release urea fertilizer synthesized through recrystallization of urea incorporating natural bentonite using various binders. Environmental Technology & Innovation. 13. 10.1016/j.eti.2018.11.005., 113–121.

5. Neto, João & Fernandes, Jucielle & M. Rodrigues, Alisson & Menezes, Romualdo & Neves, Gelmires. (2023). New Urea Controlled-Release Fertilizers Based on Bentonite and Carnauba Wax. Sustainability. 15. 6002. 10.3390/su15076002.

6. Roshanravan, Bita & Mahmoud-Soltani, Shahram & Abdul Rashid, Suraya & Mahdavi, Fari & Yusop, Mohd. (2015). Enhancement of nitrogen release properties of urea–kaolinite fertilizer with chitosan binder. Chemical Speciation & Bioavailability. 27. 1-8. 10.1080/09542299.2015.1023090.

ISSN 3030-3907

7. Shi L. et al. Ultrafast Intermolecular Vibrational Energy Transfer in Hexahydro-1, 3, 5-trinitro-1, 3, 5-triazine in Molecular Crystal by 2D IR Spectroscopy // The Journal of Physical Chemistry C. – 2020. – Т. 124. – №. 4. 2388-2398 б.

8. Фатиллоев Ш.Ф., Махмудов Р.А. ЭФФЕКТИВНЫЕ СПОСОБЫ ПЕРЕРАБОТКИ КУКОЛОК ТУТОВОГО ШЕЛКОПРЯДА // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2024. 10(127). 65-69 С.URL: https://7universum.com/ru/tech/archive/item/18330 (дата обращения: 19.01.2025).

9. Махмудов Р.А., Фатиллоев Ш.Ф. ИЗУЧЕНИЕ МАКРО- И МИКРОЭЛЕМЕНТНОГО СОСТАВА ОТХОДОВ, ПОЛУЧАЕМЫХ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПО ПЕРЕРАБОТКЕ ШЕЛКОВИЧНОГО СЫРЬЯ // Universum: технические науки : электрон. научн. журн. 2024. 2(119). URL: https://7universum.com/ru/tech/archive/item/16818 (дата обращения: 19.01.2025).

10. Fatilloyev Sh.F., Maxmudov R.A. “Karbamid asosidagi sekin ajralib chiqadigan azotli o‘g‘itlar olish”, ФАН ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАР ТАРАҚҚИЁТИ ИЛМИЙ – ТЕХНИКАВИЙ ЖУРНАЛ. ISSN 2181-8193. №5/2024 144-149 B. Buxoro-2024

11. Fatilloyev Sh.F., Maxmudov R.A. “Karbamid asosidagi sekin ajralib chiqadigan azotli o‘g‘itlarning sirt morfologiyasini o‘rganish”. ФАН ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАР ТАРАҚҚИЁТИ ИЛМИЙ – ТЕХНИКАВИЙ ЖУРНАЛ. ISSN 2181-8193. №6/2024 85-91 B. Buxoro-2024